

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**A.N.URUMBAEVA**

**«PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI»**

**fani bo'yicha asosiy tushuncha va terminlarning**

**izohli lug'ati**

Bilim sohasi: 100000 – gumanitar

Ta'lif sohasi: 110000 – pedagogika

Ta'lif yo'nalishi: (Shifr – 5110900) – «Pedagogika va psixologiya»

## **Tuzuvchi: p.f.n., dotsent A.N. URUMBAEVA**

Mazkur qo'llanma Ajiniyoz nomidagi NDPI «pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Ular «Psixologiya nazariyasi va tarixi» fanini o'rGANISH jarayonida ushbu kitobdan foydalanishi mumkin. Izohli lug'at fan bo'yicha ma'ruza, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rish uchun talabalarga tavsiya qilinmoqda.

---

### **MA'SUL MUXARRIR:**

**A.U.Elmuratova** – Ajiniyoz nomidagi NDPI dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **TAQRIZCHILAR:**

**A.S.Nauruzbaeva** - Ajiniyoz nomidagi NDPI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

**G.A.Aldjanova** - Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasi o'qituvchisi

Izohli lug'ati Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ilmiy- uslubiy Kengashi (№7 bayonnomma, 20 aprel 2019 yil) qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

## SO'Z BOSHI

Hozirgi kuni jamiyatimizda ta'lif-tarbiya tizimini sog'lom insonparvarlik yo'nalishida qayta tashkil etish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, barkamol, ma'naviy dunyosi boy, ahloqiy pok, komil insonlarni tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan, davlat ahamiyatiga molik vazifa bo'lib turibdi. Bu esa o'z navbatida psixologiya fanlarini yangi kontseptsiya asosida ishlab chiqishni va o'qitishni dolzarb muammo qilib qo'yemoqda.

Ma'lumki, yosh avlodni zamonaviy ta'lif standartlari asosida, jaxon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun psixologiya fanlarining axamiyati nixoyatda kattadir.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yy. rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy soha» yo'nalishida bozor iqtisodiyoti va yangi texnologiyalar sharoitida ishlay oladigan, raqobatbardosh oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Oliy o'quv yurtlarida ta'lif-tarbiya jarayonini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, uni yangi ta'lif usullari hamda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, yoshlar ta'lif-tarbiyasini milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar negizida Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqatlik ruhini tarkib toptirish asos qilib olinishi lozim.

Psixologiya fanlari o'z oldiga bo'lajak mutaxassislarni halqimizning o'ziga xos ma'naviyatini, ruhiga mos tushadigan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar bilan mukammal qurollantirish orqali ularda milliy tafakkur, odob-axloq, tarbiyani tarkib toptirishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu izohli lug'at talabalarga Psixologiya fanida muxim bo'lgan asosiy tushuncha va terminlardan foydalanish uchun tavsiya etilmoqda.

**Muallif**

## **Psixologiya bo'yicha asosiy tushuncha va terminlarning IZOHLI LUG'ATI (GLOSSARIY)**

**ABSTRAKTSIYa** - (lot.til. «abstractio» - mavxumlashtirish) - narsalarning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni, narsalarning muhim belgi va xususiyatlarini ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi.

**ABULIYA** - (yunon. til. «abule» - irodani inkor etmoq) - irodaning keskin zaiflashuvi, istakning yo'qolishi. A. - eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik.

**AVIATSIYA PSIXOLOGIYaSI** - (lot.til. «avis» - qush; yunon. til. «psyuxe» - jon, «logos» - ta'limot) - psixologiya tarmog'i bo'lib, uchuvchilar shaxsi va turli uchish faoliyatning psixik xususiyatlarini o'rghanadi.

**AVTONOM NUTQ** - (yunon til. «autos» - o'zi, «nomos» - qonun) - bolaning o'z nutqi ko'p ma'no va noaniq so'zlar bilan sifatlanadigan ichki nutq. Bunda turli narsalarning bir-biri bilan beqaror va uzviy bog'liqligi tufayli so'zlarning ma'nosi ham vaziyatga qarab o'zgaradi. Bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga o'tish davri bo'lib hisoblanadi.

**AGGLYUTINATSIYA** - (lot.til. «agglutinare» - yopishtirmoq, elimlamoq) - mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir - biriga «yopishtirib» qo'shish asosida yangi obrazni yaratishdan iborat xayol jarayonini turi. *Masalan, suv parisi, kentavr, sfinks obrazlari.*

**AGNOZIYA** - (yunon. til. «a» - inkor yuklamasi, «gnosis» - bilim, bilish) - idrokning buzilishi. A. - bosh miya va yarim sharlari qobig'idagi ba'zi nerv markazlarining zararlanishi natijasida, ko'ruv, eshituv hamda teri-tuyush idrokining buzilishidan iborat psixopatologik nuqson. A. - miyaning ma'lum bir jarohatlanishi natijasida sodir bo'ladi.

**AGONIYA** - (yunon. til. «agonia» - kurash) - organizmning o'limi oldidan yoki hayot bilan o'lim o'rtasida ro'y beradigan psixopatologik holat.

**AGRAFIYA** - (yunon. til. «a» - inkor yuklamasi, «grafo» - yozaman) - nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi.

**ADAPTATSIYA** - (lot. til. «adabtare» - moslashtirmoq) - sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi. Adaptatsiya xodisasida sezgirlik ortishi hamda kamayishi mumkin: kuchli taassurotdan kuchsiz taasurotga o'tganda

sezgirlik asta-sekin ortib boradi; taasurot kuchayganda esa, sezgirlik aksincha kamayib boradi. Adaptatsiya konuniyati barcha sezgilarga xosdir (qo'ruv adaptatsiyasi, eshitish adaptatsiasi, teri adaptatsiyasi).

**ADLER ALFRED** - (1870-1937 yy.). Avstriya psixolog olimi, psichoanaliz yo'nalishining yirik namoyandasi. U 1895 y. Venada tibbiyat bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1902-1911 yy. Vena psichoanaliz jamiyati a'zosi bo'lgan. 1911 y. «Individual psixologiya» deb nom olgan ilmiy maktabga asos soldi. A.Adler o'z ta'llimotida shaxsning psixik hayoti, ichki yaxlitligi tamoyilini himoya qilgan. U onglilik va ongsizlik o'rtasida aniq chegara yo'q, deb hisoblagan. O'z faoliyati bilan gumanistik psixologiya, bolalar va klinik psixologiya, defektologiya sohalariga katta hissa qo'shgan.

**AKKOMODATSIYA** - (yunon. til. «akkomadatio» - moslashish) - ko'zning turli masofadagi narsalarni ko'rishga moslashuvi.

**AKMEOLOGIYA** - (yunon. til. «akme» - yuksak pog'ona, ziyraklik, yuqori, «logos» - ta'limot) - tibbiyat, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pog'onasida uning bu taraqqiyotini ancha yuqori darajaga erishuvini o'rganuvchi fan.

**AKSELERATSIYA** - (lot.til. «akseleratio» - tezlanish) - bolalar va o'smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo'y-basti va jinsiy taraqqiyotining tezlanishi, jadallanishi.

**AKS ETTIRISH NAZARIYASI** - in'iqos nazariyasi; psixik hodisalar borliqni aks ettirish shakllaridan biri deb qaraydigan nazariya.

**AKTSENTUATSIYA** (yunon. til. «akcentus» - urg'u berish) - narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol jarayonini turi.

**ALOQA** - makon yoki vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan 2 yoki bir nechta hodisa yoki ob'ektning o'zaro bog'lanish xodisasi.

**AMALIY PSIXOLOGIYA** - ijtimoiy amaliyotning turli sohalaridagi amaliy vazifalarni hal qilishda foydalilaniladigan amaliy bilimlar va texnologiyalar majmuasidir. **Amaliy psixologiyaning muhim xususiyati** shundaki, u yoki bu vazifalar uning manfaatlari uchun hal etilayotgan iste'molchi yoki buyurtmachini hamisha ko'rsatish mumkin. **Amaliy psixologiya** kundalik hayotdagi amaliy muammolarni hal qilishni

o'rganadigan fan.

**AMALIY TAFAKKUR** - ko'pincha vaqt tanqisligi sharoitida yuzaga keladigan va xatti-harakatlarning maqsadini aniqlash, reja loyihalarni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'ladi.

**AMBIVALENTLIK** - (yunon. til. «ambi» - tevarak, ikki tomondan; lot. til. «valenti» - kuch) - bir vaqtida qarama - qarshi emotsiyalarning namoyon bo'lishi. *Masalan*, kulgu va qayg'u, xursandlik va kulfat.

**AMENTSIYA** - bu xolat og'ir va uzoq vaqt davom etadigan kasallikkarda (infektsiya va h.) ko'zga tashlanadi. Atrofni, vaqtini va o'z-o'zini bilmay qoladi, nutqi uzuq-yuluq bo'ladi. Be'morlik holati uzoq davom etishi mumkin. Xolat o'tgandan keyin amentsiya xolatidagi kechinmalar xotirada saqlanib qolmaydi.

**AMNEZIYA** - (lot. til. «a» - inkor yuklamasi, «mnemus» - xotira) - miyaning turli qismlari jaroxatlanishi natijasida xotiraning yo'qolish holati.

**ANALIZATOR** - (yunon. til. «analizis» - bo'laklarga ajratish) - murakkab neyrofiziologik tizim, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'alishlarni idrok etish va uni taxlil qilish. Analizator retseptor, nerv yo'llari, miya bilan bog'lanadigan qism va miyaning maxsus bo'limlarini o'z ichiga oladi.

**ANALITIK PSIXOLOGIYA** - psixologiyadagi oqim, unga 1913 yili K.G.Yung asos solgan. U psixikani idealistik talqin etib, ong bilan g'ayrishuuriylikning o'zaro kompensatsiyasiga asoslangan o'z-o'zini boshqaruvchi tizim deb qaraydi; shunga ko'ra ong va g'ayrishuuriylik integratsiyasi shaxsning bir butunlikka erishishi, individuallashish yo'lidir. Analistik psixologiya psixopatologiya va psixoterapiya, shuningdek, falsafa, antropologiya, madaniyat va b. fanlar bilan bog'liq bo'lgan va ularga ta'sir ko'rsatgan.

**ANALOGIYA** - (yunon. til. «analogia» - o'hshashlik) - psixik xodisalar va xulq-atvor xususiyatlarning o'xshashligi.

**ANANEV BORIS GERASIMOVICH** (1907-1972 yy.) - rus psixolog olimi, fan doktori, professor. B.G.Ananev 1907 y. Vladikavkaz shahrida tug'ilgan. U ruhiyatni o'rganish bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. B.G.Ananev Rossiyada birinchi bo'lib psixologiya mifiktabini yaratgan. U 1935 y. «Pedagogik bahoning psixologiyasi» nomli monografiyasini yozdi. 1947 y. esa «XVIII-XIX asrlarda rus psixologiyasi tarixining ocherki» nomli monografiyasini yozdi. B.G.Ananev ikkinchi jahon urushi yillarida «Rus psixologiyasi an'anasining boshlanishi»,

«K.D.Ushinskiy - ulug' rus psixolog», «Xususiyat islohotlarining muammolari» nomli asarlarini yaratdi. 1957 y. «Inson - zamonaviy fanning muammosi» hamda «O'smirlik psixologiyasining tuzilishi haqida» nomli asarlarini yaratdi. Bunda asosiy e'tiborni yoshi katta insonlardagi psixofiziologik funktsiyaning asosiy dinamikasini ko'rsatib o'tdi. U o'zining ko'p yillik faoliyati davomida inson shaxsini o'rganishga asosiy e'tibor qaratganligi tufayli mazkur tadqiqotlarni umumlashtirish maqsadida 1962-1966 yy. «Inson bilish predmeti sifatida» nomli kitobini yozdi. 1962 y. Rossiyada birinchi ijtimoiy psixologiya laboratoriyasining ochilishiga munosib hissasini qo'shdi.

**ANIMIZM** - (lot. til. «anima» - jon) - odam, hayvonot, o'simlik, predmetlarda mustaqil jon borligi haqidagi tasavvur tizimi.

**ANKETA** - tekshiriluvchiga oldindan tayyorlangan savollar tarqatilgan holda, ularga tegishli yozma javoblar olishdan iborat psixologiyaning ilmiy tekshirish (tadqiqot) usulidir.

**ANTIDEPRISSANTLAR** - psixofarmakologik moddalarning yangi bir guruhi, endogen depressiyada samarali ta'sir ko'rsatadi.

**ANTIK PSIXOLOGIYA** - psixologiya tarixining eramizdan avvalgi VII-V asrlardagi Qadimgi Gretsya, Rim, Qadimgi Xitoy va Hindistondagi psixika haqidagi ta'limotlarni o'rganuvchi bo'limi. Antik davrda psixologiya mustaqil fan sifatida bo'lmasdan, falsafaning bir qismi hisoblanardi, shuning uchun ham ruh haqidagi ta'limotlar ma'lum bir falsafiy fikrlar munosabati bilan bayon qilingan.

**ANTROPOLOGIYA** - odamning biologik tabiatini atroficha o'rganuvchi fan. Antropologiyaning vazifasi odamning organik mavjudotlar tizimidagi mavqeい, kelib chiqishi, qadimgi va hozirgi morfologik tiplari, morfologik, fiziologik, jinsiy hamda yosh xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**APATIYA** - (yunon. til. «apatia» - hissiyotsizlik) - kishining tevarak-atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishsiz befarq holati. Apatiya og'ir kechinmalar yoki kasalliklardan toliqish natijasida kelib chiqadi.

**APPERTSEPTSIYA** - (lot. til. «ap» - qarashli, «perceptio» - idrok) - shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiyligini qiziqish, xavaslariga bog'liqligi.

**ARISTOTEL** - (e.a. 384-322 yy.). Antik davr grek faylasufi, psixologiya fanining to'laqonli asoschisi. Aristotel o'zining «Ruh (jon) haqida» asarida antik tafakkur yutuqlarini birlashtirib, yaxlit psixologik tizimni yaratgan.

Uning fikriga ko'ra, ruhni tanadan ajratib bo'lmaydi, chunki tana ruhning shakl-shamoyili, ruhning mavjudlik shaklidir. Shu bilan birga, Aristotel o'z ta'lomitida 3 xil ruhni ajratdi: o'simlik ruhi, hayvonot ruhi, ongli, ya'ni insoniyat ruhi. Insoniyat ruhi ilohiy manbaga ega. Ruhni turlarga ajratish psixik funktsiyalarning taraqqiy etish darajasi bilan belgilanadi. Quyi funktsiyalar, *masalan*, oziqlanish - o'simliklarga, oliv funktsiyalar esa insonga xos. Shu bilan birga, Aristotel sezgi organlarini 5 turga bo'ldi. Narsalarning seziladigan xossalarni biluvchi organlardan tashqari u «Umumiy sezgi», ya'ni ko'p ob'ektlar uchun umumiy bo'lgan xossalarni sezuvchi umumiy sezishni ajratdi. O'z asarlarida ko'plab fizik hodisalarga ta'rif berdi. Bundan tashqari insonning qoniqqan yoki qoniqmagan holda o'z ichki faolligini qayta tadbiq qilishga intilishining insonning xulqi mexanizmiga asos bo'lishini tushuntiradi. Shuningdek, Aristotel inson xotirasi va tafakkuri haqidagi g'oyalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

**ASAB TIZIMI** - xayvon va odam organizmining barcha funktsiyalarini o'zaro hamda tashqi muhit bilan to'g'rilab, uyg'unlashtirib turuvchi a'zolar tizimi.

**ASSOTSIATSIYA** - (lot. til. «associatio» - birlashtirmoq) - psixik xodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi, jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik o'xshashlik, qaramaqarshilik va b.

**ASSOTSIANIZM** - psixik faoliyatning barcha qonuniyatlarini faqat assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi va yuzaga chiqishidan iboratdir degan qoidani ilgari suruvchi oqim.

**ASSOTSIATIV PSIXOLOGIYA** - «assotsiatsiyalar» tushunchasini asosiy, bosh tamoyil deb hisoblovchi, ilmiy-g'oyaviy mohiyati jihatidan turlicha bo'lgan psixologik oqimlar yig'indisi.

**ASTENIK** - (yunon. til. «astenia» - kuchsizlik, holsizlik) - shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

**ATEIZM** - xudo, g'ayritabiiy kuchlar va narigi dunyoning «borligi»ni ilmiy dalillar asosida inkor qiluvchi ta'lilot, diniy e'tiqodlardan voz kechish, binobarin, diniy tasavvur va tushunchalarni inkor qilish, xudosizlik.

**ATOMIZM** - tabiat hodisalari haqidagi materialistik ta'lilot bo'lib, materiya abadiy, o'zgarmas hamda bo'linmas, harakatlanuvchi zarrachalardan, ya'ni atomlardan iborat deb uqtiradi.

**ATTRAKTSIYA** - (lot. til. «attraktion» - yoqtirish, o'ziga jalb, mahliyo

etish, qiziqib intilmoq, talpinmoq) – bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirishi, o’zaro mobillikni tushuntiruvchi emotsional hisdir.

**AUDIOVIZUAL IDROK** - (ingl. til. «audio» - eshitmoq, «vizon» - ko’rmoq) - bir vaqtning o’zida ham eshitib, xam ko’rib idrok qilish.

**AUTIZM** - (yunon. til. «auto» - o’zim) - individning o’zini atrofdagi odamlardan chegaralab, o’zining kechinmalariga berilishidan iborat psixologik begonalashuv.

**AUTOGEN MASHQ** - (yunon. til. «autos» - o’zim, «genos» - kelib chiqaman) - o’z-o’zini ishontirish va o’z-o’zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul. Autogen mashq bemorning o’zi bajaradigan mashqi, psixoterapiyaning keng tarqalgan metodi.

**AFAZIYA** - (yunon. til. «a» - inkor yuklamasi, «faziya» - nutq) - bosh miya qobig’ining ayrim qismlarini zararlanishi natijasida nutqning izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

**AFFEKT** - (lot.til. «affektus» - ruhiy hayajonlanish, ehtiros, qizish) qisqa muddatli, to’satdan va shiddat bilan sodir bo’ladigan hissiy, kuchli jo’shqin ruhiy hayajonlanish: hulq-atvor, hatti-harakat ustidan nazoratning susayishi tufayli ro’y beradigan kuchli his-tuyg’u (g’azablanish, qo’rqish, nafratlanish, shodlanish). Mutaxassislar normal va patologik affektlar borligini, shuningdek, affektiv reaktsiyalarga ozroq yoki ko’proq moyil bo’ladigan shaxslar ham bo’lishini ta’kidlashadi. O’zida affektiv reaktsiyaga nisbatan hislarga erk bermaslik insondagi normal psixik holat hisoblanadi. Affektlar ta’siriga beriluvchi kishilar odatda olomon orasida sarosimalik uyg’otishga moyil bo’ladilar.

**AFFERENTATSIYA** - (lot. til. «afferens» - keltiruvchi) - tashqi va ichki qo’zg’atuvchilar orqali sezgi a’zolariga ta’sir etish asosida paydo bo’lgan nerv tizimiga kelib turish jarayoni.

**AQL** - insonning ma’naviy va ruhiy faoliyatida barcha oliy narsalar xodisalarni qanday bo’lsa, aynan shunday xolda bilish qobiliyati, mavxum fikrlash va tushunchalar yaratish xususiyati.

**AQLIY YOSH** - fanga Alfred Bine tomonidan kiritilgan. **A.yo.** - bu test natijalarining darajasiga mos keluvchi yosh.

**AHLOQ** - ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Kishilarning tarixan tarkib topgan hulq-atvori, yurish-turish, ijtimoiy va shaxsiy xayotga o’zaro, shuningdek, jamiyatga bo’lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi

barqaror muayyan norma va qoidalar yig'indisi.

**BANDURA ALBERT** - (1925-1988 yy.). Amerika psixolog, ijtimoiy o'rGANISH nazariyasi muallifi. U 1949 y. Kolumbiya Universitetini tugatgan, so'ng Ayova Universiteti magistri (1951) va Ayova Universiteti doktori bo'lgan. Keyinchalik Stenford Universitetida psixologiya professori, 1973 y. psixologiyadan ijtimoiy fanlar professori bo'lgan. Inson hulqida «stimul-reaktsiya» modelini qo'llash mumkin emas, degan xulosaga kelgan va xulq-atvorni yaxshiroq tushuntiradigan o'z modelini yaratgan. Ko'plab tajribalar asosida mustahkamlash o'rgatishning yagona determinanti emas, balki yordam beruvchi omili, deb qarash kerak degan xulosaga kelgan. Uning fikricha, insonni o'rgatishning determinanti o'zgalar xulqi va uning oqibatlarini kuzatishdir. O'rGANISH tezligi taqlid qilinayotgan predmetning yaqinligi va kuzatilayotgan xulqni so'z bilan ifodalashning natijasiga bog'liq. O'z tekshirishlariga asosan A.Bandura quyidagi xulosaga keladi: jahl tajovuzni keltirib chiqaruvchi umumiy qo'zg'alish ifodasi bo'lib, u faqat jahl reaktsiyalari ijtimoiy jihatlardan mumkin bo'lgan holatlarda yuzaga chiqadi.

**BEXTEREV VLADIMIR MIXAYLOVICH** - (1857-1927 yy.). Rus olimi, professor. U 1885 y. Rossianing Qozon Universitetida birinchi psixologik eksperimental laboratoriya asos solgan. U psixologik jarayonlarning fiziologik asoslarini chuqur o'rgangan. 1907-1912 yy. V.Bexterevning «Ob'ektiv psixologiya» katta asari nashrdan chiqdi. Kitob nemis, frantsuz, ingliz tillariga tarjima qilinib, zamonaviy psixologik bilimlar rivojida muhim o'rIN egalladi. V.Bexterev psixologiyani faqat xulq-atvorni o'rGANADIGAN fan, deb hisoblamadi, aksincha, ongni inkor etmagan holda, unga keng imkoniyatlar ochib berdi.

**BILISH** – olamning inson ongidagi in'ikos etish jarayoni. Inson o'zini qamrab olgan atrof- muxit to'g'risida bilish va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bilishning maxsuli, natijasi bilim bo'lib, xar qanday kasbni egallah faqat bilim orqali ro'y beradi.

**BINE ALFRED** - (1857-1911 yy.). Frantsuz psixolog olimi, frantsuz eksperimental psixologiyasi asoschilaridan biri, testologiya asoschisi. Yurisprudentsiya, tibbiyot, biologiya bo'yicha tahsil olgan. 1889 y. Frantsiyani Sorbonna Universitetida birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasiga asos solgan. 1894 y. shu laboratoriyanı rahbari bo'lgan. XX asr boshlarida A.Bine shogirdi T.Simon bilan bolalarning aqliy rivojlanish darajasini tekshirish uchun test ishlab chiqishga kirishgan. Bunda xotira,

diqqat, tafakkurni o'rganish ishlari umumlashtirilgan. Aqliy rivojlanish darajasini ifodalovchi «aqliy yosh» tushunchasini kiritgan. Ong va shaxs patologiyasi, aqliy toliqish, tushunchaviy tafakkur, xotira jarayonlarining individual farqlari kabi masalalar bilan shug'ullangan. Tabiiy sharoitda oliv psixik jarayonlarni birinchilardan bo'lib o'rgana boshlagan.

**BINOKULYAR KO'RISH** - (lot.til. «bi» - juft, «okulis» - ko'z) - bitta ob'ektning o'zini har ikkala ko'z bilan barobar ko'rish.

**BIOGENETIK QONUN** - (yunon.til. «bios» - hayat, «genesis» - kelib chiqmoq) - bolaning psixik taraqqiyoti, aqliy qobiliyatlarini faqat uning nasliy xususiyatlari bilan belgilab, ong taraqqiyotini belgilovchi boshqa omillarni, ayniqsa, ijtimoiy muhit hamda ta'lim-tarbiyaning rolini inkor qiluvchi irqiy nazariya. Psixologiyada E.Gekkel tomonidan ochilgan biologik qonun bo'lib, unga ko'ra ontogenez filogenezni takrorlaydi deb hisoblanadi.

**BIOGRAFIK METOD** - (yunon. til. «bios» - hayat, «grafo» - yozaman, ko'rsataman) - odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli. **B. m.** - psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, uning yordamida shaxsning ijodiy xayoli, tafakkuri, matonati, qobiliyat va iste'dodlari, talanti hamda geniyligi kabi yuksak aqliy, axloqiy, irodaviy sifatlari, individual xususiyatlari o'rganiladi va ilmiy tahlil qilinadi, muayyan shaxsning tarjimai holi, tutgan kundaliklari, tavsifnomalari, yozishmalari, boshqa kishilarning u haqidagi biografik ma'lumotlari, esdaliklari va xatlari biografik metodning o'rganish materiallari bo'lib xizmat qiladi.

**BIOLOGIK EHTIYOJLAR** - fiziologik, jinsiy moslashuv ehtiyojlari.

**BIRINCHI SIGNAL TIZIMI** - narsa va xodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etishi natijasida bosh miya yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan shartli muvaqqat nerv bog'lanishlari, u sezgi va idrok turlarida namoyon bo'ladi.

**BIXEVIORIZM** - (ingl.til. «bexavio» - xulq-atvor). Psixologiyaning predmeti psixika emas, balki inson va hayvonlar xulqini o'rganishdan iboratdir, degan fikrni ilgari suruvchi va himoya qiluvchi ilmiy oqim.

**BOSH MIYA** - markaziy nerv tizimining old (yuqori, oliv) qismi bo'lib, u bosh miya qobig'ida joylashgan oliv nerv tizimining moddiy asosi.

**BOSH MIYA KATTA YARIM SHARLARI** - bosh miyaning ikki pallasi. Uning ustki qismi uchun chuqur bo'limgan o'nqir cho'nqirlardan iborat. Bosh miya katta yarim shari orqa, old, yon, orolcha, orqa umurtqalarga

bo'linadi. Miya nerv kataklari neyronlardan iborat bo'lib, ikki katta yarim sharlar po'stlog'ini tashkil etadi. Miyadagi oq suyuqlik neyron o'simtalaridan tarkib topib, miya yo'llarini ko'rsatib turadi.

**BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI** - boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'r ganuvchi psixologiya fanining sohasi.

**BYULER KARL** - (1879-1963 yy.). Karl Byuler Avstriya-Germaniyali psixolog. U Verburg maktabida tafakkurning amaliy metodikalarini o'r ganish dasturini ishlab chiqdi. Birinchi jahon urushidan keyin bolalar psixologiyasining rivojlanish muammolariga e'tiborini qaratdi. Uning ko'pgina tadqiqotlari nutq hamda miyaning nazariy va amaliy psixologik muammolariga bag'ishlangan.

**VEGETATIV NERV TIZIMI** - (lot. til. «vegetatio» - o'simlik) - nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi. **V.n.t.** markaziy nerv tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bosh miya qobig'i tomonidan boshqariladi. **V.n.t.** simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo'linadi,

**VEBER-FEXNER QONUNI** - qo'zg'ovchi kuchining o'zgarishi bilan hosil bo'lgan muayyan sezgi kuchining o'zgarishi bilan hosil bo'lgan muayyan sezgi kuchining o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalaydigan, XIX asrda nemis olimlari E.Veber va G.Fexner tomonidan kashf etilgan qonun.

**VERBAL** - (lot. til. «verbalis» - og'zaki atama). Verbal nutq - og'zaki ifodalaniadigan nutq.

**VESTIBULYAR APPARAT** - (lot. til. «vestibuliti» - boshlang'ich, «apparatus» - asbob) - fazodagi harakatlarning yo'nali shining holati va bunday harakatlar yo'nali shining o'zgarishini kuzatib baholab turishga yordam beradigan analizator (ichki quloqda joylashgan).

**VIGOTSKIY LEV SEMYONOVICH** - (1896-1934 yy.). Rus psixologiyasining yirik namoyandasasi, oliy psixik funktsiyalar rivojlanishining madaniy-tarixiy kontseptsiyasini asoschisi. L.S.Vigotskiy 1920-yillarning ikkinchi yarmigacha san'at asarlarini idrok etish muammolarini o'r ganish bilan shug'ullangan. U yoki bu san'at asarini idrok qilayotgan insonning histuyg'u doirasini turli yo'nali shdag'i 2-ta affektni ajratib ko'rsatgan va bu qarama-qarshilikning estetik reaktsiyalarining asosi bo'l mish katarsisda namoyon bo'lishini o'rgangan. Keyinchalik «Ruhiy inqirozning tarixiy mazmuni» asaridan boshlab psixologiyaning umumiy metodologik

muammolarini tahlil qilishni boshlagan va buning natijasida individning madaniy durdonasini bilvosita umumlashtirib idrok qilishi jarayonida psixik funktsiyalarning rivojlanishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqqan. Keyinchalik L.S.Vigotskiy bolalar psixologiyasida bolaning «Yaqin kelajakdagi rivojlanish zonasasi» haqidagi nizomni o'z ichiga olgan yangi yo'nalishni yaratdi. Amalda bu muammo defektologiya sohasini rivojlantirdi. L.S.Vigotskiy anomal bolalar psixologiyasi laboratoriyasini yaratdi (1925-1926). Bunda u anomal bolaning rivojlanishi haqidagi yangi nazariyani shakllantirdi. O'z ishlarining so'nggi bosqichida u tafakkur va nutqning o'zaro munosabati, ontogenezning rivojlanishi, egotsentrik nutqni o'rganish ustida ish olib bordi. Qisqa umr ko'rganiga qaramay, L.S.Vigotskiy Rossiya va dunyo psixologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan. Shuning uchun ham uni psixologiyaning «Motsart»i deyishadi. Olim O'zbekistonda bo'lib o'z ma'ruzalarini o'qigan. L.S.Vigotskiyning ko'p ishlari bizning zamonamizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

**VIJDON** - ijtimoiy xodisa bo'lib, kishining xayotida sodir bo'layotgan ijobiy va salbiy xodisalarga munosabatida ifodalanadi. Vijdon kishining ma'naviy etukligiga bog'liq.

**VOLUNTARISM** - psixologiyadagi iroda barcha psixik hodisalarining manbai va asosini tashkil qilgan, shaxsning o'zigagina bog'liq bo'lgan birlamchi ilohiy qobiliyatdir, deb da'vo qiluvchi ilmiy oqim.

**VULGAR MATERIALIZM** - XIX asrning 50-60-yillarida maydonga kelgan. Jigar o'zidan o't ajratib chiqargani kabi materiya ham, xususan, miya o'zidan fikr ayirib chiqaradi deb, psixika tabiatini haddan tashqari soddallashtiruvchi mexanistik falsafiy oqim.

**VUNDT VILGELM** - (1832-1920 yy.). Nemis psixolog, fiziologi, faylasufi va tilshunosi. Psixologiya fanini ongni elementlarga ajratish va ular o'rtasidagi aloqani o'rganish maqsadida laboratoriya tajribasi metodini qo'llovchi alohida fan qilib qo'llash rejasini ilgari surgan. 1879 y. V.Vundt Leyptsig Universitetida dunyoda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasiga asos soldi va bu laboratoriya shu sohadagi tekshirishlarning xalqaro markaziga aylandi. Bu erda sezgi, assotsiatsiya, diqqat, turli qo'zg'atuvchilarga reaktsiyalarning paydo bo'lish vaqtini o'rganilgan. V.Vundt oliy psixik jarayonlarni tekshirishga harakat qildi, lekin, uning fikricha, bu ishlar boshqa metodlar yordamida amalga oshirilishi lozim. Ushbu fikrlari uning «Xalqlar psixologiyasi» asarida aks ettirilgan (1900-1920 yy.). V.Vundt

dunyo psixologiyasining qad ko'tarishiga katta hissa qo'shgan. Uning qo'lida mashhur psixologlar E.Titchener, F.Kryuger, G.Myunsterberg, S.Xoll, V.M.Bexterev, N.N.Lange va b. ta'lim olganlar.

**VYURTSBURG MAKTABLE** - XX asrning boshida Germaniyada paydo bo'lib, tafakkurni faqat o'z-o'zini kuzatish yoki introspeksiya metodi yordamida o'rganuvchi, tafakkurni idrok va tasavvur obrazlariga, nutq va tilga bog'liq emas deb, «sof» tafakkur haqidagi fikrni ilgari suruvchi psixologik oqim.

**GALLYUTSINATSIYALAR** - (lot. til. «gallucinatio» - alahsirash, alahlash, ko'zga ko'rinish) real voqelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta'sirisiz ongimizda turli obrazlarning hayoliy ravishda paydo bo'lishidan iborat psixopatologik hodisa. G. - insonda kasal paytidagi psixikasiga ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladigan mavjud bo'lmanan, fantastik, xayoliy, uydurma obrazlar.

**GALPERIN PETR YAKOVLEVICH** - (1902-1988 yy.). Rus psixologi, professor, fan doktori. Uning ilmiy faoliyatining boshlanishi umumpsixologik nazariyaning rivojlanish tarixi bilan bog'liq. Bu nazariyaning fundamental nizomlari asosida aqliy faoliyat va tushunchalarning bosqichma-bosqich shakllanish metodini yaratdi va tajribalarda asoslاب berdi. P.Ya.Galperinning ishlari bolalar va pedagogik psixologiya sohasida keng ko'lamda eksperimental tekshirishlarni boshlab berdi. Ikkinci jahon urushi davrida P.Ya.Galperin yaradorlarda harakatlarni tiklashni tahlil qilish ishlarini olib borgan.

**GALTON FRENSIS** - (1822-1888 yy.). Angliya psixologi va antropologi, qobiliyat, iqtidor muammolarini hal qilishga eksperimental yondashish g'oyasi asoschisi. Matematik va eksperimental metodlar asosida differentsial psixologiyaning asosi bo'lgan insonlar o'rtasidagi individual farqlar mavjudligi haqidagi ta'limotga asos soldi. O'z tadqiqotlarida F.Galton insonning rivojlanishiga 2-ta omil: irsiyat va muhit ta'sir qiladi, degan g'oyani ilgari surdi. Irsiyatning rolini o'rganishda egizaklarni taqqoslash metodini ishlab chiqdi. Bundan tashqari, F.Galton bir qator psixodiagnostik metodlar: ovozni eshitish darajasini tekshirishda hushtak, erkin assotsiatsiyalar metodi, anketa kabi metodlarni ishlab chiqdi. 1884 y. F.Galton Londondagi Xalqaro salomatlik ko'rgazmasida antropometrik laboratoriyanı tashkil qildi. Bunda mijoz 3 pens to'lab, anketa to'ldirib, o'zining aqliy qobiliyati, muskul kuchi, og'irligi, bo'yini tekshirib ko'rgan. Bu tekshirishlar

yangi ta'limotlarning ishlab chiqilishiga asos bo'lgan.

**GARTLI DAVID** - (1705-1757 yy.) David Gartli – ingliz mutafakkiri, vrach, psixolog, assotsiativ psixologiyaning birinchi rasmiy yaratuvchisi. U barcha psixik jarayonlarni miya tebranishlarining mahsuli, deb tushuntirgan. Olimning fikricha, odamning psixik olami ularning assotsiyalari vositasi bilan (his etishning) «birlamchi element»larining qiyinlashuvi natijasida sekin-asta yaralib boradi. Rivojlanishni yuzaga keltiruvchi kuchlar azoblanish va rohatlanishdir. Mexanistligiga qaramay, D.Gartli ta'limoti psixikani materialistik tushuntirishda oldinga yirik qadam bo'ldi va etika, estetika, mantiq, pedagogika, biologiya fanlariga ta'sir ko'rsatdi. D.Gartlining maslakdoshi Dj.Pristli edi.

**GELMGOLTS GERMAN FON** - (1821-1894 yy.). Nemis fiziki, fiziologi va psixologi. Ma'lumoti bo'yicha fizik bo'lib, tirik organizmni o'rganishga tekshirishning fizik metodlarini kiritishga harakat qilgan. «Kuchning saqlanishi» asarida u energiyaning saqlanish qonunini asoslab, u tirik organizmda fizik-ximik muhit bo'lib, unda energiyaning saqlanish qonuniga aniq amal qiladi. U birinchi bo'lib qo'zg'alishning nerv tolalari orqali o'tish tezligini o'lchadi, bu esa reaksiya vaqtini o'rganishga ilk qadam bo'ldi. G.Gelmgolts idrok nazariyasi rivojiga katta hissa qo'shdi. Xususan, idrok psixologiyasida ongsiz aqliy xulosalar kontseptsiyasini rivojlantirdi. Bunda dolzarb idrok odamning odatiy qobiliyatlaridan kelib chiqadi, muskul sezgilari va harakatlari tashqi olamning doimiy saqlanishida katta o'rinn tutadi. Bu kontseptsiyaga asosan makonni idrok qilish mexanizmini tushuntirishga urindi. M.V.Lomonosov kabi rangli ko'rinishning 3-komponentli nazariyasini rivojlantirdi. Eshitishning rezonans nazariyasini ishlab chiqdi. V.Vundt, I.M.Sechenov kabi olimlar Gelmgoltsning shogirdlari bo'lgan.

**GENIY** – daho. Bu yangiliklarni yaratuvchi va kashf qiluvchi shaxs.

**GENETIK METOD** - (yunon. til. «genetikos» - kelib chiqishga oid, «metodos» - tekshirish, tadqiqot) - psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanish jarayonini o'rganish usuli.

**GENETIK PSIXOLOGIYA** - psixologiyaning maxsus sohasi bo'lib, umuman, hayvonlar xulqi va inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi; xususan psixik jarayonlarning o'zgarishini, turning biologik va evolyutsion taraqqiyoti, odamning paydo bo'lishi tarixi, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti, har bir organizmning yoshga qarab yoki individual taraqqiyoti

jarayoni asosida o'rganadi.

**GENETIK PSIXOLOGIYA** - (yunon. til. «genetikos» - kelib chiqishga oid, «psyuxo» - ruh) - odamning individual psixologik xususiyatlarining kelib chiqishi, ularning shakllanishida genotip va muhitning rolini o'rganadi.

**GENOTIP** - (yunon. til. «genos» - kelib chiqish, «tipos» - namuna) - ota-onadan farzandga o'tadigan genlar majmui, irsiy asosi.

**GIPERBOLIZATSIYA** - (yunon. til. «giperbole» - kattalashtirmoq) - kattalashtirish bilan bog'liq xayol jarayonining bir usuli.

**GESHTALTPSIXOLOGIYA** - psixikaning bilish jarayonlarining yaxlit tuzilishi va dinamikligi tamoyiliga asoslanuvchi, bu xususiyatlar azaldan psixikaga xosdir, ular psixika taraqqiyotining asosini tashkil qiladi, degan fikrni ilgari suruvchi oqimlardan biri.

**GESHTALTPSIXOLOGIYA** - psixikaning bilish jarayonlarining yaxlit tuzilishi va dinamikligi tamoyiliga asoslanuvchi, bu xususiyatlar azaldan psixikaga xosdir, ular psixika taraqqiyotining asosini tashkil qiladi, degan fikrni ilgari suruvchi ilmiy oqimlardan biri.

**GIPERBULIYA** - bemor kishining haddan tashqari faolligi bo'lib, u kamroq uchraydi. Bunday holat pernisioz anemiyada paydo bo'lishi mumkin. Samarasiz giperbuliya maniakal holatda bo'lgan bemorlarda kuzatiladi.

**GIPNOZ** - uyg'oqlik bilan uyquga o'tish orasidagi uyqu holati.

**GIPOMNEZIYA** - xotiraning pasayishi bo'lib, charchash vaqtida og'ir kasallikdan so'ng paydo bo'ladi. Kishi sog'aygach xotira joyiga keladi.

**GIPESTEZIYA** - sezgi buzilishini turi (kam ta'sirchanlik).

**GIPOBULIYA** - iroda faolligini kamayishi.

**GIPOTEZA** - faraz. O'rganilayotgan xodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli tahmin tarzidagi bilim shakli.

**GOBBS TOMAS** - (1588-1679 yy.). Ingliz mutaffakiri Tomas Gobbs «Tafakkurni fikr qiluvchi materiyadan ajratish mumkin emas» degan g'oyat muhim fikrni ilgari surgan. Uning fikricha, olam mexanik harakat va harakat qonunlariga bo'ysundirilgan jismlar majmuidir. T.Gobbs tabiiy-ilmiy metodologiyaga asos solgan. U inson psixikasi, uning mexanik qonunlariga so'zsiz bo'ysunadi. T.Gobbs ruh mustaqilligini tan olmagan.

**GURUH** - umumiy bo'lgan bir yoki bir nechta belgilarga ko'ra birlashgan kishilar yig'indisidir. **G.** - odamlarning bирgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilariga asoslangan

ijtimoiy jamoa. Guruhlar real va shartli, rasmiy va norasmiy bo'lishi mumkin.

**GURUHNING BIRDAMLIGI** - fikrlar birligi, e'tiqodlar, an'analar birligida, shaxslararo munosabatlar, kayfiyatlarning ijobiy xarakterida va guruh psixikasining boshqa belgilarida, shuningdek, hamkorlikdagi amaliy faoliyatning birligida namoyon bo'ladigan guruh a'zolari birligining psixologik xarakteristikasidir.

**GURUH DINAMIKASI** (yunon. til. «dinamik» - kuch) - bu guruhning o'z holatini o'zgartiradigan, rivojlantiradigan yoki buzadigan kuchlarning hamkorlikdagi jarayonidir. U asosan ikki xil yo'nalishdagi jarayonlarda ko'zga tashlanadi: guruh a'zolarining birlashuvi va aksincha, keskinlashuvi.

**GURUHDA KUCHLARNING MUNOSABATI** - bu guruhiy jarayonlarni hamda guruh a'zolarining hulq-atvorini nazorat qilish imkoniyatlarining guruh ob'ektlari o'rtasida taqsimlanishidir. Liderlik tushunchasida, guruh dinamikasi va hokazolarda namoyon bo'ladi.

**GURUH MUNOSABATLARI** - **a)** guruh faoliyatining xarakteri va mazmuni; **b)** guruhning umuman strukturadagi o'rni, qadriyati, birligi va b. xarakteristikasi; **v)** guruh a'zolarining ijtimoiy individ sifatidagi o'zaro shaxsiy munosabatlari; **g)** bu munosabatlarga jalb qilingan kishilarning individual pozitsiyalariga ko'ra guruhda uning a'zolari o'rtasida qaror topadigan munosabatlardir.

**GURUH ROLI** (o'rni) - guruh uchun bajaradigan vazifasiga ko'ra insonning shu guruhdagi barqaror, mustahkam holati (o'rni, pozitsiyasi).

**GURUHLARNING TUZILISHI** - guruh qismlarining kichik guruhlarga nisbatan barqaror bo'linishi, guruhga kiruvchi kishilar o'rtasida guruh vazifalarining taqsim qilinishi.

**DAVLETSHIN MUHAMMAD GABDULGALIMOVICH** - (1923-2011 yy.). O'zbek olimi, psixologiya fanlari doktori, professor, fan arbobi, qator ilmiy hamda o'quv-metodik ishlarning muallifi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida ilmiy prorektor va psixologiya kafedrasi mudiri lavozimlarida ko'p yillar davomida ishlagan. 1957 y. «5-7 sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllanishi» mavzusida, 1971 y. «O'quvchilarni texnik qobiliyatları psixologiyasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. M.G.Davletshin raxbarligida uning bevosita maslahatlari yordamida O'zbekistonda 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilingan.

**DADILLIK** - kishining xayot va omonligi uchun yomon bo'lgan

kishilarni engishda ko'rindigan iroda kuchidir.

**DEBILLIK** - oligofreniyaning engil darajasi. Debillikda maxsus maktabda ta'lim oluvchilarni ayrim qobiliyatlarini saqlanib qoladi. Umumlashtirish va abstraktsiyalash qobiliyati pasaygan bo'ladi. Debillar tashabbussiz bo'lib jismoniy mexnatga qobil bo'ladi.

**DEVIANT XULQ-ATVOR** - ijtimoiy deviantlik (og'ish)ni keltirib chiqaruvchi xulq-atvor.

**DEDUKTSIYA** - (lot.til. «deduktio» - keltirib chiqarish) - umumiylardan yakka hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat tafakkur shakli.

**DEKART RENE** - (1596-1650 yy.). Frantsiyalik Rene Dekart XVII - asrning eng yirik mutafakkirlardan biri, introspeksiya (o'zini-o'zi kuzatish) metodini asoschisi hisoblanadi. R.Dekart fe'l-atvorning deterministik kontseptsiyasiga va ongning introspektiv kontseptsiyasiga asos solgan. R.Dekartning fikricha, tan va ruh bir-biri bilan bog'liq va ular uchinchi substantsiya - xudo orqali ta'minlanadi. R.Dekart o'zining «Usul haqida mulohazalar» nomli asarida matematika, mexanika va geometriyaga asoslanib bilimning deduktiv usulini ishlab chiqishga harakat qildi. U mulohazakorlik (ratsionalizm)ning asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha, bizning sezgi a'zolarimiz hamma narsaga shubha qilishi mumkin, biroq bizning fikr qilayotganimizga shubha qilish mumkin emas. Shunga ko'ra, u «Men fikrlayapman, demak, men mavjudman», - degan xulosaga keladi.

**EMENTSIYA** - orttirilgan aqli zaiflik, globar (yalpi, bir-biriga o'tgan) va lakunar (ichoqli) aqli zaiflikka bo'linadi.

**DEPRESSIYA** - (lot. til. «depressio» - ruhan tushish) - tushkunlik kayfiyati; odamdag'i intilishlarning susayishi, xarakatlarning tormozlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holat. D. - kayfiyat buzilishining bir turi bo'lib, insonning doimo g'amgin, yomon kayfiyatda yurishidir.

**DETERMENIZM** - (lot. til. «determinare» - aniqlamoq) - tabiatdag'i barcha narsalar, shu jumladan, psixik hodisalarning ro'y berishi ob'ektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi, taqozolangan bo'ladi degan ta'limot. D. - psixologiyaning asosiy tamoyillaridan biri.

**DJEYMS UILYAM** - (1842-1910 yy.). Amerikalik faylasuf va psixolog. U.Djeyms idrokni nazariy jihatdan o'rganib, shunday deydi: «Idrok jarayoni miya markaziga qaratilgan». U tadqiqotlari va izlanishlari natijasida tashqi

muhitga moslashish bilan birga, inson psixikasiga ta'sirini, organizmdagi o'zgarishlarni o'rjanib chiqdi. U tadqiqotlari davomida emotsiyani nazariy jihatdan o'rgandi. Shu bilan birga qo'rqliq, xursand bo'lisligi, fiziologik o'zgarishlarni shuningdek, ichki tuyg'uni isbotlab berdi.

**DIL** - jon, qalb, yurak, ko'ngil. Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida ushbu tushunchalar deyarli bir xil ma'noda ifodalanib borliqning nomoddiy asosida hamda insonning tub mohiyatini ifodalash uchun xizmat qilib kelgan.

**DINAMIK STEREOTIP** - (yunon. til. «dinamikos» - kuchli, «sterios» - qattiq, «tipos» - iz) - bosh miya katta yarim sharlarining faoliyatini yaxlitlab turish turi bo'lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta'minlab turadi. Dinamik stereotip inson odatlari, mehnat malakalarining fiziologik asoslaridir.

**DIN PSIXOLOGIYASI** - diniy ong xususiyatlari, tizimi va funktsiyalarining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rjanuvchi psixologiya tarmog'i.

**DIFFERENTSIAL PSIXOLOGIYA** - (lot. til. «differentia» - farq) psixologiya fanining bir sohasi bo'lib, kishilar o'rtasidagi individual psixologik farqlarni o'rjanadi.

**DIQQAT** - ongning muayyan ob'ektlar to'plami, jarayonlarga (tashqi yoki psixikaga bog'liq) tanlangan holda yo'naltirilish va unda to'planishidan iborat psixik holatdir. Ba'zan nazorat va o'z-o'zini nazoratni ham diqqatga kiritishadi. **D.** - ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriyidan so'nggi turlariga ajratiladi.

**DIQQATNING BARQARORLIGI** - diqqatning ma'lum ob'ektga uzoq vaqt davomida muttasil qaratilishi.

**DIQQATNING KO'LAMI** - bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha ob'ektga qaratilish imkoniyati.

**DIQQATNING TAQSIMLANISHI** - diqqatning bir vaqtida bir necha ob'ektga taqsimlanish xususiyati.

**DIQQATNING KO'CHISHI** - diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'ektdan ikkinchisiga ko'chirish.

**DUALIZM** - (lot. til. «duafis» - ikki yoqlama) - borliq ham moddiy, ham ruhiy bo'lgan ikki asosdan tashkil topgan deb hisoblovchi falsafiy ta'limot bo'lib, psixofizik parallelizm kontseptsiyasining asosidir.

**DUNYO OBRAZI** - insonga dunyoda harakatlana olish uchun mo'ljal

bo'lib xizmat qiladigan olam to'g'risidagi, boshqa kishilar, o'zi va o'z faoliyati to'g'risidagi bir butun, yaxlit ko'p darajali tasavvurlari tizimidir. Bu sub'ektiv kechinmalar tilida yaratilgan tashqi dunyoning ichki modelidir. Ta'kidlash lozimki, bu olamni idrok qilish natijasida hosil bo'lgan, ichki rejaga noavtomatik tarzda ko'chirilgan obrazlar emas, balki hayotiy faollikning har biri keyingi momentidagi hodisalarni bashorat qila oladigan, chiqur anglanmagan taxminlar asosida aktiv qurilgan tizimdir. O'zini va tashqi olamni faol o'zlashtirish davomidagi tekshirish usullari bilan (sinov va xatolar) yaratiladi.

**DUNYOQARASH** - tartibga solingan, aqliy ongli tizimga aylantirilgan bilim, taasvvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda munosib o'rinn egallashga chorlaydi.

**DO'STLIK** - o'zaro bir - birini tushunuvchi 2 yoki ko'proq inson o'rtasida yuzaga keluvchi emotsional ijobiy xisdir. Odatda bir jins vakillari orasida yuzaga keladi.

**ETAKCHI FAOLIYAT** - faoliyat turlaridan biri bo'lib, bunda ma'lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o'zgarib shakllanadi.

**YOSH DAVRI NIZOLARI** - o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenet davri bo'lib, bu vaqtida keskin psixik o'zgarishlar yuz beradi.

**YOSH PSIXOLOGIYASI** - psixologiya fani tarmoqlaridan bo'lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

**JAMIYAT** - tabiatning bir qismi, borliqning aloxida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar majmuasidir.

**JON (ruh)** - idealistik falsafa va psixologiyada moddiy bo'limgan, ilohiy mohiyat, «inson psixik hayotining egasi va sababchisi».

**ZINCHENKO PYOTR IVANOVICH** - (1903-1969 yy.). Mashhur rus psixologi. P.I.Zinchenko Xarkov universiteti professori bo'lib ishlagan. Unga xotirani o'rganish ishlari katta shuhrat keltirgan. Birinchi ilmiy ishini 1930 - yillarda A.N.Leontev boshchiligida olib borgan. Keyingi ishlarida ixtiyorsiz xotirani o'zgartirishga katta e'tibor bergen. Bu ishlarning asosiy natijalari «Ixtiyorsiz eslab qolish» kitobida aks ettirilgan (1961). Uning rahbarligida ta'lim samaraliligi va xotira mahsuldorligi muammolari ishlab chiqilgan.

**ZOOPSIXOLOGIYA** - (yunon.til. «zoo» - hayvon, «psyux» - jon, ro'x, «logos» - ta'limot) - psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, hayvon

psixikasining taraqqiyotini va xususiyatlarini o'rganadi.

**IDEAL** - (yunon. til. «idea» - g'oya, tushuncha, tasavvur) - biror narsaning namunasi, ayrim odam, gurux va sinf xatti-harakatlari va intilishini belgilovchi oliy maqsad. Ideal shaxsning mukammal sifati va insonlarning o'zaro go'zal munosabatlari, xar taraflama rivojlangan odamlar haqidagi tasavvurlar. **I.** - orzu, intilishning oliy maqsadi. Tor ma'noda: shaxs qobiliyatlarini ifodalovchi namuna.

**IDEALIZM** - falsafaning bosh masalasida ongning borliqqa munosabati masalasida materializmga qarama-qarshi o'laroq ong, ruh birlamchi, moddiy dunyo, borliq esa ikkilamchi, ong, sezgi, tasavvur va tushunchalarning mahsulidir deb da'vo qiluvchi g'ayri ilmiy falsafiy oqim. Psixikani idealistik tushunish idealistlar, materialistlarga qarama-qarshi tarzda psixika tana bilan yashirin yo'sinda birlashgan, inson o'lgach, tanani tashlab, «narigi dunyo»ga, g'oyalar dunyosiga ketib, u erda abadiy yashaydigan moddiy bo'limgan qandaydir ilohiy substantsiya yoki mohiyatning namoyon bo'lishidir deb tushuntiradilar.

**IDENTIFIKATSIYA** - (lot. til. «identifikasiare» - tenglashtirmoq) - shaxsning o'z-o'zini o'zga odam bilan emotSIONAL va boshqa tomondan tenglashtirishi.

**IDEOLOGIYA** - ijtimoiy ongning turli shakllarida ifodalangan tasavvur, tushuncha va g'oyalar tizimidan iborat ong mazmuni, mafkura. G'oya narsa yoki hodisalar haqidagi muayyan tasavvur va tushunchalar yig'indisi, moddiy olamni aks ettiruvchi inson tafakkurining muayyan tushunchalar shaklidagi mahsuli.

**IDIOTIYA** - aqli zaiflikning og'ir darajasidir. Bunda bemorlar psixikasi va nutqi amalda butunlay yo'q bo'ladi.

**IDROK** - sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va xodisalarni bevosita yaxlit holda aks ettirish jarayoni. **I.** - sub'ekt tomonidan uning ongiga nisbatan tashqi dunyodan ajratib olinadigan ba'zi butunlik va yaxlitliklarning bilish jarayoni va harakatlari davomida ongda aks ettirilishidir (bunga boshqa kishilar va inson o'z tanasini aks ettirish ham kiradi). Aytaylik, insonning o'z tanasining sog'ligi yoki nosog'lomligi to'g'risidagi ichki a'zolardan kelayotgan signal natijasida shakllanadigan obrazni idrok etish ham, etmaslik ham mumkin. Ko'pincha esa **idrok** deganda tabiiy va sotsial dunyodagi predmetlarni in'ikos ettirish tushuniladi. Ob'ekt bo'lsa tashqi muhitda tayyor holda bo'ladi-yu, u insonga ta'sir qiladi va natijada u inson

tomonidan avtomatik tarzda aks ettiriladi, anglanadi, desak, unchalik to'g'ri emas. Aksincha, inson tartibsiz holdagi kechinma va tasavvurlar orasidan ba'zi ob'ektlarni ajratib oladi va bu bilan go'yoki ushbu tartibsizliklarni tartibga keltiradi. Inson sezgi a'zolariga ta'sir qilish uchun biron narsa idrok etildi, anglandi deyishga hali erta. Predmet yoki predmet emas deb hisoblash insonning o'ziga bog'liq: kim uchundir tashqi muhitda musiqaviy ovoz va shovqinlar, ularda uyg'unlashmaganlik (dissonans) va uyg'unlik (konsonaj); kimgadir esa mashinaning ishlashidan darak beruvchi shovqin yoki hayvonlar tomonidan chiqarilayotgan ovozlar, kim uchundir suhbatdoshning nutqidagi mantiqiy urg'u berishlar, kimgadir turar joylarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz rejalshtirish va boshqalar. Kimlar uchundir esa, agar u bunday narsalarni bilmasa, ular go'yoki yo'qdek «zo'r berib eshitmaslik va ko'rmaslik» paytida bo'ladi.

**IDROKNING KONSTANTLIGI** - (lot.til. «constantis» - o'zgarmas, doimiy) idrok sharoiti o'zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo'lgan narsa obrazlarning (ularning shakli, rangi, hajmi) nisbatan o'zgarmasligi, turg'unlik holati.

**IDROKNING PREDMETLILIGI** - jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni ichki olam ob'ektiga kiritish xususiyati.

**IDROKNING BUTUNLILIGI (yaxlitliligi)** - sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan ob'ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok etish.

**IJTIMOIYLASHUV** - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va xayot faoliyati jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni. I. -shaxsning jamiyatga qo'shilib yashashi va shu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishidan iborat bo'lgan jarayon

**IJTIMOIY PSIXOLOGIYA** - psixologiya sohasi. I.p. - uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida paydo bo'ladigan psixologik hodisalarni o'rganadi.

**IJTIMOIY NORMA** - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan xarakatlar talabi.

**IJTIMOIY SANKTSIYA** - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishni nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmi.

**IJTIMOIY USTANOVKA** - shaxsning atrof-muhitda sodir bo'layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruxlarda ma'lum tarzda idrok

etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruxiy ichki hozirlik sifatida odamlardagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriya.

**IJTIMOIY EHTIYOJLAR** - bu mehnat qilish bilan bog'liq estetik, ahloqiy va ma'naviy ehtiyojlar.

**IKKINCHI SIGNAL TIZIMI** - odamga xos shartli reflektor bog'lanishlar tizimi bo'lib, nutq signallarining bevosita ta'sirida shakllanadi. I.s.t. - birinchi signal tizimi asosida hosil bo'ladi. Bu - umumlashgan mavhum tafakkurning asosi.

**ILLYUZIYA** - (lot. til. «illusio» - aldash) - borliqning tana a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri (noadekvat) idrok qilishdan iborat bilish jarayonining hodisasi.

**ILMIY PSIXOLOGIYA** - inson va hayvon psixikasi taraqqiyoti, paydo bo'lish va mavjud bo'lishi qonuniyatlarini aniqlashda foydalaniladigan texnologiya va murakkab tarmoqlangan belgilar tizimidir. Ilmiy psixologiyaning asosiy vazifasi - yangilikni aniqlash emas, balki bir tomonidan ishonarli bilimlari egallah, boshqa tomonidan esa, qaysi o'rinda ular ishonarli, qay holda esa yolg'on va noaniq ekanligini ayniqlashdan iboratdir.

**IMBETSILLIK** - aqli zaiflikning o'rta darajasi. Imbetsil odamning nutqi kambag'al bo'lib, u duduqlanib gapiradi. Amalda ularni o'qitib bo'lmaydi.

**INDIVID** - (lot. til. «individuum» - bo'linmas ayrim jins, shaxs) - biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot, odamzod vakili.

**INDIVIDUALLIK** - individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligi. I. - o'ziga xos takrorlanmas xususiyatlar egasi hisoblanmish odam. Insonning individ, faoliyat sub'ekti va shaxs sifatidagi betakror xususiyatlari tizimidir. Individuallikning mavjud bo'lishi insonning ta'lim-tarbiya, u bilan faol munosabatidagi individual yondashuvining asosi hisoblanadi. «Har bir kishigacha etib borish» - bunday yondashuvning idealidir. Individuallikni inkor etish (nodonlik, ishonch yoki kam anglangan harakat tufayli, *masalan*, texnik yoki umumilmiy g'oyalarning oddiy formulalariga sig'inish oqbatida) zaruriy tarzda bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi (shaxslararo va shaxslar ichidagi keskinlik, ixtiolar, ruhiy jarohatlar, nizolar ishtirok etganlarning asabiy holatlari va ta'lim-tarbiya, mehnatdagi past samaradorlik natijalari sifatida).

**INDUKTSIYA** - (lot. til. «industio» - keltirib chiqarish) - juz'iy yoki yakka hollardan umumiyya, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakli.

**INNOVATSIYA** - ijtimoiy amaliyatda sezilarli o'zgarishlar tug'diradigan turli xil yangiliklar yaratish va tadbiq etish.

**INONTIRISH** - bir odamning ikkinchi odamga psixologik yo'l bilan o'ziga xos tarzda ta'sir qilishdir.

**INSAYT** - oydinlashuv. Muammoning echimi, ba'zan birdan yorqin yulduzday yalt etib paydo bo'ladi. Bunday psixologik xolat psixologiyada insayt - oydinlashuv deyiladi.

**INSON** - ushbu tushunchaga aniq ta'rif berish uchun olamda mavjud bo'lgan boshqa biologik mavjudodlardan ajralib turuvchi eng muxim xususiyatlarni aniqlash zarur.

**INSONPARVARLIK** - gumanizm, odamlarga mehr-muxabbat bilan qarash, ularni xurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash.

**INSOF** - insonning muayyan jamiyatda amal qilayotgan axloq me'yorini nazorat qilish va axloqiy baxolash.

**INSTINKT** - (lot.til. «instinktus» - ichki mayl, intilish) - murakkab shartsiz refleks, u hulq-atvorning nasldan-naslga beriladigan tug'ma harakatlar yig'indisi. I. - tashqi yoki ichki ta'sirotlarga javoban hosil bo'ladi.

**INTELLEKT** - (lot til. «intellektus» - tushunish, tushuncha, mulohaza). Insonning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, aqli. Inson hayoti davomida bilish faolligiga tegishli bo'lgan barqaror o'ziga xos va rivojlanib boruvchi xususiyatlar va sifatlar tizimi, uning ichki va tashqi hayotiy holatlar, jumladan, ijtimoiy muhitda ham oqilona mo'ljal ola bilishdir. Odatda sub'ektning faoliyat sohasiga bog'liq holda ijtimoiy intellekt, texnik intellekt, gumanitar intellekt, verbal (og'zaki) va noverbal intellekt turlarni farqlashadi.

**INTELLEKT TESTI** - insondagi aqliy qobiliyatlarni boshqalarning aqliy qobiliyati bilan solishtirish orqali aniqlanadi.

**INTERVYU** - (fr.til. «intervyu» - suhbat) - bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to'plash usuli.

**INTROVERSIYA** - shaxsning o'z fikrlari, sezgilar, kechinmalarining

o'z-o'ziga tayanishi.

**INTROSPEKTSIYA** - (lot.til. «introspektio» - sinchiqlab qarayman, kuzataman) - bu odamning o'z-o'zini kuzatishga asoslangan psixologik metodi.

**INTERIORIZATSIYA** - (lot. til. «interio» - ichki) - tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayoni.

**INTERORETSEPTIV SEZGILAR** - (lot.til. «interio» - ichki, «retseptiv» - olmoq) - ichki a'zolarda joylashgan retseptorlar.

**INTUITSIYA** - (lot. til. «intueri» - yaxshilab, diqqat bilan qaramoq) voqelikni bilishning bevosita haqiqatga aylanishi bilan amalga oshiriladigan alohida usuli bo'lib, uning yordamida muammoli vaziyatlar echimini topish mumkin, u ijodiy faoliyat mexanizmi sifatida tushuntiriladi.

**IRODA** - insonning o'z psixikasi va hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olishida namoyon bo'ladigan xususiyati (holati)dir. Iroda ongli tarzda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi yo'lida ro'y beradigan to'siqlarni engib o'tish davomida namoyon bo'ladi. Uni o'z-o'zini zo'r lab qiyinash bilan tenglashtirmaslik kerak. Iroda hamma vaqt ham o'z-o'zini majburlash bilan bog'liq emas. Bu baribir o'z maqsadiga erishishishi yo'lida ishonch, kelishish, ayyorlik, o'rgatish, o'z xususiyatlaridan mohirona foydalanish (odatlar, standart reaktsiyalar, zaifliklardan) bo'lishi mumkin.

**IRODANING AHLOQIYALIGI** - hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi.

**IRODA ERKINLIGI** - falsafiy - ahloqiy kategoriyanı ifoda etuvchi tushuncha. U o'z - o'zini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bog'liq.

**IRRATIONALIZM** - idealistik falsafa va psixologiyadagi dunyoning asosini irratsional-aqldan tashqari narsa, aql kuchi bilan bilib bo'lmaydigan qonuniyatga zid bo'lgan substantsiya tashkil qiladi deb ilmiy-mantiqiy bilishni inkor qiluvchi reaktsion oqim.

**ISTE'DOD** - shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

**IXTIYORIY HARAKATLAR** - oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir.

**ICHKI NUTQ** - nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan ifoda etiladigan alohida turi.

**KAYFIYAT** - birorta emotsianing barqaror kechishi. **K.** - insonning psixik hayotida namoyon bo'ladigan, o'rtamiyona yoki zaif samaradorlikning nisbatan davomiy, barqaror, emotsiyonal holati bo'lib, u yoki bu hissiyotning ustunligi bilan sifatlanadi.

**KASB** - bu jamiyat uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo'lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi.

**KASB TANLASH** - ijtimoiy foydali mehnatga o'z xissasini qo'shish zarurligini anglash natijasida kasbga yo'nalish.

**KASBIY MALAKALAR** - ishlab chiqarish faoliyatining ko'p takrorlanishi natijasida avtomatlashgan xatti-harakatlar yig'indisi. **K. m.** - kasbni tez, tejamli, samarali, engil bajarish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

**KASBIY TAYYORGARLIK** - muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishslash imkoniyatlarini ta'minlovchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka, odat, sifat, xususiyatlar, mehnat tajribasi va xulq normalariga ega bo'lishlik.

**KASBIY TA'LIM** - kasbga tegishli ma'lumot; mehnat faoliyatining ma'lum bir sohasi uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, amaliy ko'nikma, malaka va odatlar tizimi.

**KATEGORIYA** - voqelikdagi narsa hamda hodisalarini, ularning umumiyligi muhim bog'lanish va munosabatlarini aks ettiruvchi asosiy mantiqiy tushuncha.

**KINESTETIK SEZGI** - (yunon. til. «kineo» - harakatga keltiraman) - o'z tana a'zolarining holati va xarakatini proprioretseptorlar ta'siri ostida sezish.

**KICHIK GURUH** - umumiyligi ishni bajaradigan va bir-biri bilan bevosita shaxsiy aloqada bo'lgan, 3-tadan 20-30-tagacha kishidan tarkib topgan, unchalik katta bo'limgan kishilar to'plamidir. U guruh a'zolarining hamdard bo'lishi, «biz» ekanligini his etishi bilan bog'liq xususiyatlarga ega.

**KOMA** - (yunon. til. «koma» - uyquchilik, harakatsizlik) - insonning es-xushining botamom yo'qolib qolishi. Ongning sifat o'zgarishlariga kiritish mumkin.

**KOMMUNIKATSIYA** - (lot. til. «kommunikatia» - aloqa, fikr olishuv, ma'lumot berish) - til va boshqa belgilar vositasida axborot berish.

**KONTSEPTSIYA** - (lot.til. «conseptio» - idrok etmoq) - faoliyat

maqsadlari o'z ichida saqlanib qolgan, faqat o'zi uchungina xizmat qiladigan moslashishdan qo'zg'alish holatiga o'tish qobiliyati.

**KONFORMIZM** - (lot. til. «conformis» - o'hshash, mos keladigan) - individning guruh fikrlariga tegishli tomondangina qo'shilib, ichki tomondan esa qo'shilmay o'z fikrida qolishi, guruhga ongli ravishda moslashishi. K. - inson tomonidan o'zining haqligiga ichidan shubhalanmaydigan fikridan nosamimiy ravishda qaytish tufayli boshqalarning fikrlarini (ehtimol, noto'g'ri bo'lsa ham) tanqidsiz qabul qilish.

**KORRELYATSION TAHLIL** - (lot.til. «correlativus» - o'zaro munosabat) - tekshirilayotgan xodisalar yoki omillarning shakllari, belgilarining aloqadorlik darajasini (bir-biriga bog'liqligini) baholashning statistik metodi.

**KREATIVLIK** - (lot., ingl. til. «create» - yaratish, «creative» - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. K. - shaxs tomonidan muammoni yangicha hal qilish, bir muammoni turli usullar bilan echish. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. K. - shaxsni yahlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, K. - iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, K. - zehnni, o'tkirlikni belgilab beradi.

**KUZATISH** - psixologianing asosiy metodlaridan biri bo'lib, odamning xatti - harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va sub'ektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr olishdan iborat.

**KUNDALIK ONG** - kishilarning bevosita kundalik tajribasiga asoslanadigan va ular mansub bo'lgan ijtimoiy jamoalarda hukmronlik qiluvchi tasavvurlar, bilimlar, tushunchalar va harakatlarning yig'indisidir.

**KO'NIKMA** - odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinaradigan qobiliyati.

**QAYTA HOSIL QILISH** - kuzatish mumkin bo'lgan u yoki bu belgilar shaklidagi faollashgan mazmunning qayta tiklanishi va qayta qurilishidan iborat bo'lgan aqliy hodisadir.

**QA'TIYAT** - ba'zi xollarda kishi qabul qiladigan qarshiliklar amalga oshirishda imkoniyatlarga ishongan xolda juda tez ma'lum bir qarorga kelish.

**QIZIQISH** - shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan

muayyan narsa yoki xodisalarga munosabati. **Q.** - keng va tor, chuqur va yuzaki, barqaror bo'lishi mumkin.

**QOBILIYATLAR** - shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvafaqqiyatlarini va osonlik bilan faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatidir. **Q.** - u yoki bu sermahsul faoliyatni egallah mahorati bilan bog'liq bo'ladigan insonning individual - psixologik xususiyati bo'lib, uning yordamida inson teng bo'lgan boshqa sharoitlarda ushbu faoliyatni tez va puxta, oson va mustahkam ravishda tashkil qilish va amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirib oladi.

**QO'ZG'ATUVCHANLIK, QO'ZG'ALUVCHANLIK** - tashqi qo'zg'ovchi omillar ta'sirida fiziologik holatlarini o'zgartirib yuborish qobiliyati. Barcha tirik mavjudotga xos xususiyat.

**LABORATORIYA TAJRIBASI** - (lot. til. «laboratore» - ishlamoq) - psixologiya metodlaridan biri. Tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.

**LANGE NIKOLAY NIKOLAEVICH** - (1858-1921 yy.). Buyuk rus psixologi. Rossiyada eksperimental psixologiya asoschilaridan biri. N.N.Lange idrok, diqqat, xotira, tafakkur masalalari bilan shug'ullangan. Idrokning fazoviyligi kontseptsiyasini yaratgan. Unda fazolar umumiyyidan qismanga o'tadi, deb o'qtirgan. Diqqatning motor nazariyasini ishlab chiqqan. Bunda harakat idrokning faqat energiyasi emas, balki yaxlitlovchi hamdir. Psixikaning asosiy funktsiyasi organizmga holat haqida xabar beruvchi markazga intilgan tokni va unga javoban markazdan ketuvchi reaktsiyani o'z ichiga olgan «doiraviy reaktsiyadir».

**LAYOQAT** - nerv tizimining ba'zi determinalashgan anatomik-fiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki yakka, tug'ma, tabiiy zaminidir.

**LEVIN KURT** - (1890-1947 yy.). Mashhur nemis va amerika olimi. U 1890 y. Pozen viloyatida tug'ilgan. U biologiya, fizika, matematika, san'at va adabiyotni chuqur bilgan. Biroq uning uchun birinchi o'rinda doim psixologiya fani bo'lgan. Uning g'oyalarini quyidagilarga bo'lish mumkin: voqeal-hodisalar olami obrazi; hozirgi vaqt obrazi; psixologik qonuniyat tasdiqllovchi izomorfizm tamoyili. Bunda K.Levin psixologik hodisalar tizimidan foydalangan. U «Affekt va psixologik harakat metodlari» deb nomlangan asarini yaratdi. Shuningdek, «Muhit ta'sirining samarasi» asari

jamiyat tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. U AQShda «Shaxsning dinamik nazariyasi» asarini yaratdi. Bundan tashqari, «Urush dunyosining psixologik jihatlari» mavzusida tadqiqot ishlarini olib bordi.

**LEONTEV ALEKSEY NIKOLAEVICH** - (1903-1979 yy.). Mashhur rus psixolog, fan doktori, professor. U 1920-yillar oxirida L.Vigotskiy bilan hamkorlikda madaniy-tarixiy kontseptsiya g'oyalarini amaliyotda qo'llab oliy psixik funktsiyalarni o'rghanuvchi qator tajribalar olib borgan (ixtiyoriy xotira va xotira jarayonlari). 1930 y. boshida Xarkov faol maktabini boshqargan va faoliyat masalasini nazariy va eksperimental ishlab chiqishga dastlabki qadamni qo'ydi. Natijada, hozirgi zamон psixologiyasida tan olingan nazariy yo'naliшhordan biri bo'lgan faoliyat kontseptsiyasini ilgari surgan. Psixologiyada A.N.Leontev kiritgan faoliyat tuzilishi asosida yangi psixologik sohalarga asos bo'lgan barcha psixik hodisalar o'rGANilgan. Psixologiya borliqning faoliyat jarayonida psixikani aks etishi, paydo bo'lishi va tuzilishi haqidagi fan, deb qaralishi yuqoridagi kontseptsianing mantiqiy davomi sifatida qaralgan.

**LIDERLIK** - (ingl. til. «lider» - etakchi) - guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida hukmronlik va bo'ysunuvchanlik, hokimlik va qaramlik munosabatlaridir.

**LONGITYUD TADQIQOT** - (ingl. til. «longitude» - uzoq muddat) sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o'rGANish usuli.

**LURIYA ALEKSANDR ROMANOVICH** - (1902-1977 yy.). Mashhur rus psixologi. U 1902 y. Qozon shahrida vrachlar oilasida dunyoga kelgan. Psixologiyaning turli jabhalaridagi muammolar bilan shug'ullangan. Rus neyropsixologiyasi asoschisi. Psixologiya va meditsina fanlari doktori, professor, 500 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. L.Vigotskiy bilan birga oliy psixik funktsiyalar rivojlanishining madaniy-tarixiy kontseptsiyasini yaratish ustida ish olib borgan. 1930 y. L.Vigotskiy bilan birga «Xulq-atvor tarixidan lavhalar» asarini yozgan. Markaziy Osiyoga ko'plab ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirgan va qatnashgan. Bu ekspeditsiyalarda to'plangan materiallar asosida odam psixikasidagi madaniyatlararo farqlarni umumlashtirib ko'rsatgan. Olimning psixologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi neyropsixologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishi bo'lib, bu uning oliy psixik funktsiyalarining tizimli dinamik lokalizatsiyasi va uning miya jarohatlangandagi buzilishlari haqidagi nazariyasida aks etgan. A.R.Luriya nutq, idrok, diqqat, tafakkur, ixtiyoriy harakatlar va faoliyat

neyropsixologiyasi bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan. O'z tadqiqotlarini O'zbekistonda ham olib borgan.

**MADANIY-TARIXIY NAZARIYA** - ijtimoiy tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilib, o'zgarib boradigan moddiy va ma'naviy madaniyatning insoning psixik taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatishini tan oluvchi nazariya. Uning muallifi mashhur rus psixolog L.S.Vigotskiy.

**MAZMUN** - bevosita hissiy kechinmalar davomida yoki ongda aks etuvchi qandaydir ob'ekt o'rtasidagi munosabatni xira bo'lsada anglash va sub'ekt hohishlariga ko'ra paydo bo'ladigan psixik yaxlitlikdir. Bir narsa men uchun kerak, ehtiyoji bor, boshqasi esa - yuq, kerakmasligini e'tiborga olib, aytishadiki, «bu men uchun mazmunga ega» yoki «buning men uchun mazmuni yo'q» tashqaridan qaraganda bir narsa bo'lib tuyulgan yumush (o'ra qazish) yollangan er qazuvchi uchun daromad qilish mazmuniga ega, arxeolog uchun qandaydir buyuk tarixiy muammoni echish, tasodifiy yo'lovchi uchun esa piyodalar yo'lining buzilayotganligi unga qandaydir buzg'unchilik mazmuniga ega bo'lib tuyuladi.

**MAKDUGALL UILYAM** - (1871-1938 yy.). Amerikalik psixolog olim U. Makdugall odamlarning ijtimoiy xulq-atvorini tushuntirib bergan va uning asosida irqnning ustunligini himoya qilgan. U ilmiy genetikaga qarshi chiqib, orttirilgan alomatlarning nasldan-naslga o'tishini isbotlashga harakat qilgan.

**MALAKA** - faoliyatning avtomatlashtirilgan ko'nikmasi, mustahkam mahoratidir. Boshda ongi nazorat qilinadigan va bir me'yordagi harakat bo'lgan narsa har bir kishiga turmush tajribasiga ko'ra avtomatlashtirishi mumkin. Ko'nikmalar faqat oson payqash mumkin bo'lgan harakatchan bo'lmaydi, balki fikrlovchi, sotsial-kirishuvchan, tashkilotchi va boshqacha ham bo'ladi. Avtomatizmdan iborat bo'lgani holda ko'nikmalar ayni paytda ishda ijodning zaruriy sharti hisoblanadi (bunga tushunarli misol quyidagicha: shu sozanda o'z asbobida musiqa chalishning zarur texnikasi, ko'nikmasini hosil qilgunga qadar u ijodkor bo'la olmaydi, chunki u hali «musiqiy» asboblar klavishalarini, pozitsiyalar va b.ni chalkashtirib qo'yishdan qo'rqiadi).

**MALAKALAR INTERFERENTSIYASI** - (lot. til. «inter» - orasida, «ferens» - tarqatuvchi) - avval hosil qilingan malakalarning keyinchalik boshqa yangi malakalarning hosil bo'lish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida yangi malakalarning susayib qolishi.

**MARDLIK** - o'zini puxta bilish, dadillik, qa'tiatlik, chidam va toqat

paytalarida namoyon bo'ladigan kuchli iroda sifati.

**MASLOU ABRAXAM XAROLD** - (1908-1970 yy.). Amerikalik psixolog olim. U 1908 y. Nyu-Yorkda tug'ilgan. Gumanistik psixologiya asoschilaridan biri. Motivatsiyaning tug'maligi va universalligiga asoslangan ierarxik model g'oyasi asoschisi. Insonni shaxs xususiyatlari, mustaqillik, kreativlik falsafiy dunyoqarash, demokratik maxsuldarlik kabi xususiyatlarni ta'riflagan. Keyinchalik u ehtiyojlarni zaruriy va taraqqiyot ehtiyojlarga ajratish orqali o'zgartirgan.

**MATERIALIZM** - falsafadagi ikki asosiy oqimlardan biri, ya'ni idealizmga qarama-qarshi o'larоq birdan-bir ilmiy, tarixan rivojlangan dunyoqarashdir. Psixikani materialistik tushunish, ya'ni dialektik materializm psixika tabiatini tushuntirishda idealizmga hamda uning turli shakldagi ko'rinishlariga qarama-qarshi o'larоq psixika qandaydir moddiy bo'lmanan ilohiy substantsiyaning namoyon bo'lishi emas, balki yuksak darajada tashkil topgan materianing ya'ni miyaning ob'ektiv voqelikni alohida yo'sinda aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lgan xususiyatidir, deb ta'lim beradi.

**MATERIYA** - inson ongiga bog'liq bo'lmanan holda mavjud bo'lgan, u orqali aks ettiriladigan ob'ektiv borliq.

**MA'LUMOT** - bir tartibga kiritilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni hamda natijasi. Ma'lumot olishning asosiy yo'li - o'quv muassasalarida yoki mustaqil o'qishdan iborat.

**MEDIUMIZM** - o'lganlar bilan tiriklar o'rtasida spiritik aloqa bog'lash «mumkinligi» haqidagi xurofot.

**MELANXOLIK** - (yunon. til. «melan» - qora, «xole» - o't, safro) - temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan sifatlanadi.

**MEN-KONTSEPTSIYA** - (lot.til. «conceptio» - qabul etish) - odamning o'zi to'g'risida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan taa'surotlar tizimi. Men - kontseptsiya ijtimoiy fikrlarimizni tashkil etuvchi va xulq-atvorimizni boshqaruvchi tizimdir. Men - kontseptsiyasi asosida odam boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va o'ziga bo'lgan munosabatni belgilaydi.

**MEN-OBRAZI** - shaxsning o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi asosida shakllanuvchi tasavvurlar yig'indisi.

**MENTALITET** - individ yoki ijtimoiy guruxning milliy o'ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma'lum bir tarzda tushunishi va va birlikda xarakat qilishga tayyorligi va moyilligi.

**METOD** - (yunon. til. «metodos» - tadqiqot, tekshirish) - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

**MEXANIK XOTIRA** - (yunon. til. «mexane» - qurol, mashina) - materialning ma'nosiga tushunmagan holda takrorlashdan iborat xotira.

**MEXANISTIK MATERIALIZM** - dunyoning barcha xilma-xil hodisalarni fizik, kimyoviy, biologik, shu jumladan, psixik hodisalarni ham materiya zarrachalarining fazodagi mexanik o'rinni almashtirilishidan, harakatidan iborat deb da'vo qilib, har qanday hodisa, jumladan, psixik hodisa qonuniyatlarini ham mexanik qonuniyatlari bilan tushuntirishga intiluvchi antidialektik ta'limot.

**ME'YOR** - ob'ektning sifat va miqdoriy jixatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.

**MEHNAT** - odamning ma'lum maqsadga, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat.

**MEHNAT PSIXOLOGIYASI** - psixologiya sohasi. Turli mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

**MIELIN** - (yunon. til. «mielos» - iliq) - nerv tolalarning yumshoq qobig'i tarkibiga kiruvchi yog'simon moddalar aralashmasi.

**MILLAT** - odamlarning til, hudud, iqtisodiy turmush va madaniyat birligida ko'rindigan psixik tuzilishining birligi negizida tarixan tarkib topgan barqaror birligidir.

**MILLATCHILIK (natsionalizm)** - yuqori tabaqa vakillarining manfaatlarini ko'zlab, bir millatni ikkinchisiga qarshi gij-gijlash, ular o'rtasiga milliy nizo solishga qaratilgan mafkura va siyosat.

**MILLIY XARAKTER** - (yunon. til. «xarakter» - xususiyat, belgi) - biror bir millatga xos xususiyatlar.

**MISTIKA** - tabiatdan tashqari kuchlarga, ilohiyatga, g'ayri hissiy narsalarga ishonish, kishining «g'ayri tabiiy kuchlar» bilan bevosita aloqa qilishiga ishonish.

**MODELLASHTIRISH** - bilim ob'ektlarini modellar asosida qarama - qarshi qilish, qandaydir hodisa va jarayonlarning o'rnini bosuvchi, taqdim

etuvchi bajaruvchi sifatidagi modellarni tadqiq qilish va yaratish.

**MONIZM** - (yunon. til. «monos» - bir) - dualizmga qarama - qarshi o'laroq dunyodagi barcha hodisalarning asosini bitta narsa - yo materiya, yo ruh tashkil qiladi deb ta'lif beruvchi falsafiy ta'limot.

**MONOLOGIK NUTQ** - bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutq turi.

**MOSLIK** - kishilardan harakat qilish kelishuvini va yaxshi o'zaro bir-birini tushunishini talab qiladigan birgalikda ishlash, vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyat.

**MOTIV** - faoliyatga undovchi kuch yoki sabab. **M.** - shaxsdagi u yoki bu xulq - atvorga nisbatan bo'lgan moyillik.

**MOTIVATSIYA** - odamni aktiv faoliyatga undovchi sabablar majmui. **M.** - inson hulq-atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

**MOTIVLAR KURASHI** - (lot. motivus - harakatchan) - qaror qabul qilish bilan bog'liq irodaviy harakatlar bosqichi.

**MULOQOT** - ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro axborot almashuvi va bir - biriga ta'sir etishi.

**MULOQOTDAGI KONSTRUKTIVLIK** - hamkorlarning aloqasi davomida ularning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan, birgalikda hal qilinayotgan masalalarning ijobjiy echim topishiga yordam beradigan, ularning individual betakrorligini saqlab qoladigan muloqotdir. Muloqotdagi konstruktivlik (yaratuvchanlik) tushunchasi kishilarning muloqot davomida o'z salohiyatini o'stirish, shaxsiy o'sishi, ijtimoiy etuklikning shakllanishi tomon harakatlanishi yo'nalishini ko'rsatadi.

**MUNOSABATNING O'ZGARISHI (deformatsiya)** - bu munosabatlardagi shunday o'zgarishlarki (buzilish, qiyinchiliklar, yanglishishlar), ular munosabatdagi samaradorlikning pasayishi yoki buzilishiga, hamkorliklarning sog'lig'iga, ularning obro'siga yoki ruhiy osoyishtaligiga, moddiy qadriyatlariga va boshqalarga putur etkazadi. O'zgarishlarni ularning turiga qarab turlicha tushunish mumkin. *Masalan*, mening ustidan kulishayotgani uchun bizning begona ekanligimizni, bizning do'st emasligimiz, bir-birimizni tushuna olmasligimizni, meni masxara qilishayotganligi va ko'plab boshqa narsalarni anglay boshladim.

**MUSIQIY PSIXOLOGIYA** - san'at psixologiyasining sohasi bo'lib, odamga va uning faol musiqa faoliyatiga bo'lgan ta'sirini o'rganadi.

**MUTAXASSISLIK** – bu bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.

**MUXANDISLIK PSIXOLOGIYA** - psixologianing tarmog'i, odam mehnatining psixologik xususiyatlarini, faoliyat jarayonida texnika vositasi bilan munosabatda bo'lishini o'rganadi. Shu bilan birga, muxandislik psixologiyasi mashina va uskunalar loyixasini yaratishda inson omillarini hisobga olish talablarini ishlab chiqadi.

**NAZORAT LOKUSI** - (lot.til. «lokus»- joy) - odamning o'z faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan ko'rish (eksternal, tashqi nazorat lokusi), yoki o'zining qobiliyatlarini intilishlardan ko'rish xislati (internal, ichki nazorat lokusi). Fanga amerikali psixolog olim Yu.Rotter tomonidan kiritilgan.

**NEVROZ** – psixogen kasalliklar natijasida ro'y beradigan holat.

**NEYRON** - (lot. til. «neyron» - tola, ip) - asab tizimining asosiy tuzilishi va funksional birligi, u asab katakchalari, to'qima va undan uzoqlashuvchi o'simtalardan iborat.

**NEYROPSIXOLOGIYA** - muayyan psixik jarayonlar sodir bo'lishini ta'minlaydigan neyron tarmoqlarini o'rganuvchi psixologiya fani sohasi.

**NERVLAR** - tizimchasimon murakkab tuzilma, nerv tolalari tutami, ular miyani va nerv tushunchalarini tananing boshqa a'zolari bilan bog'laydi.

**NIZO** – konflikt, to'qnashuv, o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama - qarshi qiziqishi.

**NUTQ** – ovoz berilgan til, u yoki bu til belgilarini anglatuvchi ovoz signallarining inson tomonidan qo'llaniladigan tizimidir. N. -odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli.

**NUTQ MADANIYATI** - muloqot jarayonida ma'lum til normalariga asoslangan holda ma'noli nutqni ifoda etish.

**OLIY NERV FAOLIYATI TURI** - oliy nerv faoliyati xususiyatlarining barqaror yig'indisi (kuchi, vazminligi, harakatchanligi va b.). Bu asab nerv tizimining xususiyatlari yig'indisi bilan ifodalanadi.

**OLLPORT GORDON** - (1897-1967 yy.). Amerikalik psixolog G. Ollport 1897 y. shifokorlar oilasida tug'ilgan. Shaxsni o'rganishga tizimli yondashish nazariyasining asoschisi. Shaxs nazariyasini «Men» va «o'z-o'zini anglash» tushunchalariga asoslangan holda ishlab chiqqan «O'z-o'zini aktuallash» nazariyasi shaxsning angangan va hayotida muhim narsaga intilishini bildiradi. Biologik ehtiyojdan kelib chiqadigan motivlar qondirilganda biologik asosga bo'ysunmaydigan xarakter kasb etishi mumkin (motivlarning

funktional avtonomlashish tamoyili).

**ONG** - ob'ektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuqori usuli. Odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lgan. **O.** - hayvonlar psixikasidan farqli ravishda butun inson psixikasini ifodalashda foydalaniladigan termin. Inson psixikasi (ong) belgililik (ong «hujayrasi» belgilarning murakkab tizimini hosil qiladi), qurollilik (istagan ong birligi predmetlar dunyosini aks ettirish vositasi sifatida foydalaniladi), predmetlilik (tashqi dunyo elementlari bilan mutanosibligi va qat'iy uyushganlik (belgilar va quollar tizimi ko'plab o'zaro mutanosib kategoriyalarni vujudga keltiradi) xususiyatlari bilan sifatlanadi.

**ONG VA FAOLIYAT BIRLIGI** - psixologiyaning asosiy ilmiy tamoyillarining biri. Ong bilan faoliyatning birligi, uning o'zaro bog'liqligini e'tirof etuvchi g'oya.

**ONG OSTI HOLATLARI** - aktual ravishda anglab olinmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar yig'indisi. Odamning xatti-harakatlari va uning ongi mazmuniga ta'sir etishga qodir.

**ONGLI FAOLIYAT** – oliy psixik funktsiyalardan biri.

**ONGSIZLIK (anglab bo'lmaydigan)** – odam ongiga borib etmagan psixik jarayonlar majmui. Aniq, ravshan anglash nazorati uchun predmet bo'la olmaydigan ko'plab psixik hodisalar to'plami. Ongda har bir daqiqada bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi tasavvurlar bo'lishi mumkin (o'rtacha taxmin qilishlaricha 7Q2). Bunda ushbu damdagi anglanmagan tasavvurlarni biz aniq ong zonasiga oson «chaqirishimiz» mumkin («hohlaganing uchun eslading»), lekin juda ko'plab psixik boshqarib turuvchilar (regulyatorlar) shunday ishlaydiki, bunda inson na faqat o'zo'ziga hisob bermasligi mumkin, balki buni u hattoki hohlagan taqdirda ham uni qila olmaydi. *Masalan*, soatning aylana shakldagi tsiferblatini idrok qilayotganda bizning ko'z qobig'imizda aylana emas, balki ellips (agar soatga yondan qarasak) hosil bo'lishi mumkin, biroq soat qanday holda tursa ham biz tsiferblatni «aylana» sifatida idrok qilamiz. Nafaqat sub'ekt idroki tomonidan angvana olmaydigan, balki psixologiyada yangi shug'ullanayotgan kishi uchun ham tushunarsiz bo'lgan bu geometrik ma'nodagi hol psixika mexanizmlari tufayli ro'y beradi (qarang: doimiylik idrok xossasi sifatida) hissiyotlarning ba'zi qismlari («yaxshi», «madaniyatatlilik» bilan sig'isha olmaydiganlarini) ongdan siqib chiqariladi, lekin **Z.Freyd** ta'limotiga ko'ra, ular hatti-harakatni sezilarli holda

boshqarishda davom etaveradi va hattoki ichki ziddiyatlarga va asab kasallariklarini ham keltirib chiqaradi. Psichoanalizning (bu termin freydizm tomonidan mustahkam o'rnashib qolgan, shuning uchun har qanday psixika tahlilini (analizini) psichoanaliz deb atamaslik kerak) psixoterapevtik amaliyoti shunga asoslanganki, siqib chiqarilgan hissiyotlarni topib anglash predmetiga aylantirish lozim. Bu psichoanalitikdan juda katta va o'tkir mahoratni talab qiladi (o'zini shunday deb hisolaydiganning ko'pchiligi, afsuski, nafaqa bu borada malakasiz, balki manfaatparast hamdir).

**ONTOGENEZ** - (yunon. til. «on, ontos» - asl, tub, «genesis» - tug'ilish, paydo bo'lish) - organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui. Shaxsning ona qornidagi embrional davridan boshlab, to umrining oxirigacha yoki individual hayot tugaguncha bo'lgan jismoniy hamda psixik rivojlanish davri.

**OPERATIV XOTIRA** - (lot. til. «operatio» - harakat) - xotira turlaridan biri, bu ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, uzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalaniladi.

**OPTATSIYA** - (lot. til. «optatio» - xoxish, tanlov) - tanlov bosqichi. Odam tomonidan kasbiy taraqqiyotning bosqichi, tanlanishidir deb e'tirof etiladi. 11-12 yoshlar, 14-18 yosh davrlarni o'z ichiga oladi.

**OPTIMIZM** - kechayotgan voqeа va xodisalar jarayoniga nisbatan bildirilgan ikki xil qarama – qarshi fikrlar yoki munosabatlarni yaxshilikka yo'yish.

**ORZULAR** – insonning kelajak to'g'risidagi, xayoliga kelgan va u uchun muhimroq ehtiyojlar va qiziqishlarni ro'yobga chiqarish borasidagi rejalaridir.

**PAVLOV IVAN PETROVICH** - (1849-1936 yy.). Buyuk rus fiziologi. Nobel mukofoti soxibi, oliy nerv faoliyati ta'limoti asoschisi sifatida tarixda nom qoldirgan. 1904 yili ovqat hazm qilish va qon aylanishi bo'yicha olib borgan ishlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. O'z tadqiqotlari jarayonida u atrof-muhit ta'sirlari va hayvon faoliyati orasida o'zaro ta'sir borligini isbotlagan. Uning ta'limotida tashqi dunyoning muayyan (shartsiz) qo'zg'atuvchilarga javoban hosil bo'luvchi shartsiz tug'ma reflekslar va boshida farqsiz bo'lgan qo'zg'atuvchini shartsiz qo'zg'atuvchi bilan bog'lanishidan so'ng hosil bo'lgan shartli reflekslar faoliyat birliklari bo'ladi degan g'oya ilgari so'rildi. Nazariy qarashlarni rivojlantirish va tajribalarni

tahlil qilish natijasida 2-ta signal sistemasi haqidagi nazariyani ishlab chiqdi. Bunga ko'ra, 1-chi signal sistemasi sensor, 2-chi signal sistemasi nutqiy tovushlar bilan bog'liq. U analizator kontseptsiyasini ishlab chiqdi, nerv tizimi tiplari haqidagi nazariyani ilgari surdi, xalqaro ilmiy maktab yaratdi.

**PANPSIXIZM** - dunyoda bor bo'lgan hamma narsa jonlidir deb hisoblovchi g'ayri ilmiy idealistik ta'limot.

**PANTOMIMIKA** - (yunon. til. «panto – mimos» - hamma narsaga taqlid qiluvchi) - inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonatsiyalar bilan birga uning psixik holatini, ayniqsa, his – tuyg'ularini ifodalovchi harakatlari.

**PARAPSIXOLOGIYA** - (yunon. til. «para - oldida, yonida, «psyuke» - rux, «lodos» - ta'limot) - psixologiyani tadqiqot soxalaridan biri, sezgi a'zolari ishtirokisiz idrok qilish shakllarini, shu bilan birga tirik mavjudotning fizik xodisalarga mushak kuchisiz ta'sir etish turlarini o'rganadi. Parapsixologiya muammosi baxsga moyil soxadir.

**PATOPSIXOLOGIYA** - (yunon. til. «patos» - azoblanish) - psixologiyaning sohasi. U bosh miya zararlanishi yoki uning etarlicha rivojlanmaganligi natijasida kelib chiqadigan psixik kasallikkarni o'rganadi, psixiatriya bilan uzbek bog'liq.

**PEDAGOGIK MULOQOT** - ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida bo'ladigan muloqot turi.

**PEDAGOGIK PSIXOLOGIYa** - (yunon. til. «peydo» - bola, «gogos» - tarbiya) - ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini psixologik asoslarini o'rganuvchi psixologiya fani tarmog'i.

**PEDOLOGIYA** - (yunon. til. «peydo» - bola, «logos» - ta'limot) - yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan bo'lib, u bola taraqqiyotining psixologik, anatomik, fiziologik, biologik hamda ijtimoiy kontseptsiyalarning mexanik yig'indisidan iboratdir. XX asrni 20-chi yillarda paydo bo'lib, ozgina vaqt hukm so'rgan.

**PERSONALIZM** - falsafadagi butun dunyo eng yuksak ilohiy shaxs tomonidan boshqariladigan ruhiy mavjudot (shaxs) lar yig'indisidan iboratdir, deb targ'ib qiluvchi g'ayri ilmiy oqim.

**PERTSEPTIV HARAKATLAR** - (lot.til. «perceptio» - idrok etmoq) - idrok jarayonining asosiy tuzilish birligi. Bu idrok ob'ektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

**PIAJE Jan** - (1896-1980 yy.). Shveytsariya psixologi, Jeneva genetik psixologiyasi asoschisi Jan Piaje 1896 y. dunyoga keldi. J.Piaje asosiy diqqat-

e'tiborini bolaning fazo, vaqt, son va sabab to'g'risidagi tasavvurlari hamda qabul qilishi va axloqiy rivojlanishiga qaratgan holda, bolalardagi nutq va fikrlash jarayonlarini o'rganishga bag'ishladi. Keyinchalik u intellektning rivojlanishini o'rganishga e'tibor qaratdi. Olim tomonidan quyidagi asarlar yaratilgan: «Bolalar intellektining paydo bo'lishi» (1936), «Bola tomonidan reallikni tuzish» (1937). Uning eng ko'zga ko'ringan asarlari «Bola nutqi va fikrashi» (1923), «Genetik eptemologiyaga kirish» (1949-1950), «Strukturalizm» (1968), «Genetik psixologiya muammolari» (1972). J.Piaje o'smir va bolaning intellektual rivojlanishidagi bosqichlar gipotezasini ilgari surdi. Uning gipotezasiga ko'ra, intellektual rivojlanishni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: sensomotor intellekt (2 yoshgacha), deoperator intellekt (6-7 yoshgacha), formal amallar (15 yoshgacha).

**PILOTAJ TADQIQOT** - tadqiqotning muammoni izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

**PLASEBO** - rangi, ta'mi, hidi jihatidan doriga o'xshash, biroq ta'sir ko'rsatish asosiga ega emas modda.

**PLATONIZM** - qadimgi yunon faylasufi Platonning (e.a. 427-347 yy.) sezgilardan tashqargi «idealari» ning mistik dunyosini real narsalar dunyosiga qarama-qarshi qo'yishdan iborat bo'lgan idealistik ta'limoti.

**POLILOG** - gurux ichidagi munozaradir.

**PRAGMATIZM** - sub'ektiv idealizmning dunyoni ilmiy ravishda tushunishdan bosh tortuvchi, dunyoni ob'ektiv ilmiy bilishga tor amaliyatchilikni qarama-qarshi qo'yuvchi turi.

**PREDIKATLAR MANTIG'I** - muhokama yuritish jarayonlarining muloxazalarning ichki tarkibidan kelib chiqib tahlil qiladigan mantiqiy tizim. U muloxazalar mantig'ini o'z ichiga oladi. Predikatlar mantig'i tili muloxazalar mantig'i tiliga qo'shimcha simvollar kiritish yordamida hosil qilinadi.

**PRINTSIP** - (yunon. til. «principium» - boshlanish, asos) - biror bir narsaning ta'lim nazariyasi yoki fan, dunyoqarashning kelib chiqish asoslari. U odamning ichki e'tiqodi bo'lib, o'ziga, borliqqa, boshqalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

**PROEKTIV METOD** - (lot.til. «projektos» - oldinga tashlangan, yunon. til. «metodos» - tadqiqot, usul) - shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu etodta, *masalan*, tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

**PROFORIENTATSIYA** - (lot. til. «professio» - kasb, yunon. til. «orient - yo'nalish) - kasb tanlashga yo'llash; yoshlarni ongli ravishda xoxish-istaklari, qiziqishlari, qobiliyatlariga qarab xalq xo'jaligi mutaxassislarga bo'lgan extiyojidan kelib chiqqan holda psixologik-pedagogik va tibbiy tomondan kasbga yo'naltirish.

**PSIXIKA** - (yunon. til. «psixikos» - ruhiy, jonga oid) - yuksak darajada tashkil topgan tirik materiya, ya'niy bosh miyaning alohida yo'sinda aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lgan alohida xususiyatidir, funktsiyasi. Uning mohiyati ob'ektiv olamni - sezgi, idrok, tuyg'ular, hissiyot, tasavvur, fikrlar, irodaviy harakatlar kabi va b. shakllarda yoki ko'rinishda aks ettirishdan iborat.

**PSIXASTENIYA** - (yunon. til. «psyuxe» - ruh, jon, «astenia» - ojizlik, kuchsizlik) - haddan tashqari qat'iyatsizlik, o'ziga ishonmaslik, badgumonlik, ruhan ezilganlik va mutassil fikrlarga beriluvchanlik va h. bilan sifatlanadigan psixopatologik holat.

**PSIXIATRIYA** - (yunon. til. «psyuxe» - ruh, jon, «iatria» - davolash) - psixik kasalliklar, ularning paydo bo'lish sabablari, sodir bo'lishi, oldini olish hamda davolash haqidagi fan.

**PSIXIK JARAYONLAR (bilish jarayonlari)** - u yoki bu psixik maxsulot va natijalarni (psixik obrazlar, holatlar, tushunchalar, hissiyot va h.) hosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayonlar.

**PSIXOZLAR** - bosh miyaning zararlanishi natijasida inson psixik faoliyatining turli shaklda va darajada buzilishidan iborat kasalliklar yig'indisidir (depressiya, maniya va b.)

**PSIXOANALIZ** - ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta'limot. Bu atama venalik psixiatr Zigmund Freyd tomonidan yaratilgan. Psixiatriya va psixologiyadagi odam hulqining asosini lazzat olish (libido) bo'ladi, ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan seksual (jinsiy) mayl tashkil qiladi, deb targ'ib qiluvchi, odam hulqidagi ijtimoiylik, onglilikni inkor qiluvchi g'ayri ilmiy oqim.

**PSIXOGENEZIS** - (yunon. til. «psyuxe» - ruh, jon, «genezis» - kelib chiqish) - inson psixi hayoti (sezgi, idrok, xotira, nutq, hissiyot kabilar)ning paydo bo'lishi.

**PSIXOGENIYA** - organizmda va psixikada odatda shaxs uchun og'ir bo'lgan turli psixik jarohatlarni ta'siri ostida paydo bo'ladigan buzilishlar.

**PSIXOGIGIENA** - (yunon. til. «psyuxe» - ruh, jon, «gigienos» -

salomatlik keltiruvchi) - umumiy gigienaning insonning nerv-psixik salomatligini saqlash va mustahkamlash tadbirlari ishlab chiqiladigan bo'limidir. Bu bo'lim yashash va mehnat sharoitlarini o'rganish, nerv tizimini mustahkamlovchi, uning tashqi muhitning zararli omillariga nisbatan qarshiligini orttiruvchi tadbirlar ilmiy jihatdan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, psixogigiena bilimlari targ'ibot qilinadi.

**PSIXOGRAMMA** - muayyan kasb yoki ixtisos sohasiga xos bo'lgan eng muhim shaxsiy sifat va xususiyatlarning yozma yoki jadval tarzida ifodalanishi.

**PSIXODIAGNOSTIKA** - (yunon. til. «diagnostikos» - bilishga qodir) - shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi, tashxis qo'yuvchi va o'lchashni ishlab chiqaruvchi psixologiya sohasi.

**PSIXOKORREKTSIYA** - (yunon. til. «korrekter» - tuzatish) - shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni.

**PSIXOLOG** - psixologiya mutaxassis; psixologiya sohasida ilmiytadqiqot ishlarni olib boruvchi, amaliy sohada faoliyat yurituvchi, yoki o'qituvchilik qiluvchi shaxs.

**PSIXOLOGIK XIZMAT**- psixologiyani amaliyotda qo'llash tizimi. U turli sohalarda diagnostika, maslahat, ekspertiza vazifalarini bajaradi.

**PSIXOLOGIYA** - (yunon. til. «psyux» - jon, ruh, «logos» - ilm, ta'limot) - odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u, hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan ijtimoiy-gumanitar fan. Psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi. Psixologiyaning predmeti - konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatining o'ziga xos tomonlaridir.

**PSIXOLOGIYA METODLARI** - psixik xodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari.

**PSIXOLOGIYA TARIXI** - psixologiyaga oid bilimlar, oqimlar, nazariyalar va qonuniyatlarning turli davrlarda paydo bo'lishi hamda tarixan rivojlanib borishini o'rganuvchi fan.

**PSIXOLOGIZM** - sub'ektiv idealistik falsafanining ob'ektiv dunyo sezgilar yig'indisidan iborat, deb, demak, falsafaning asosini psixologiya, logika va bilish nazariyasining asosini esa ichki tajriba tashkil qiladi, deb da'vo qiluvchi bir turi.

**PSIXOLOGIK TAJRIBA (eksperiment)** - psixologiya sohasiga doir ba'zi qonuniyatlarni amaliy hamda ommaviy ravishda namoyish qilish.

**PSIXOLOGIK TARG'IBOT VA TASHVIQOT** - psixologik xizmatni muhim yo'nalishi sifatida psixologik bilimlarni, psixologiyaning ilg'or ilmiy yutuqlari va tajribalarini keng yoyish, aholi ommasiga etkazish ishlarini o'z ichiga oladi. **P.t. va t.** - shakl va turlari xilma-xildir: ma'ruzalar, suhbatlar, maslahatlar, munozaralar, OAVda chiqishlar, savol-javob kechalari, psixologik tajribalar o'tkazish va h.

**PSIXOLOGIK TA'LIM** - psixologik ma'lumot; psixologiya fanlari tizimining biror tarmog'i bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus pedagogika bilim yurtlarida ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlari olib borish uchun zarur bo'lgan umumnazariy, maxsus bilimlar, ko'nikmalar va malakalar yig'indisi. **P.t.** - ega bo'lgan kadrlar oliy o'quv yurtlarining maxsus fakultetlarida tayyorlanadi.

**PSIXOPATIYA** - (yunon. til. «psyuxē» - ruh, jon, «patoς» - azoblanmoq - psixik faoliyatning uyg'unsizligi, ayniqsa, emotsiyal-iroda va mayl sohalaridagi uyg'unsizlik bilan sifatlanuvchi patologik shakli. **P.** - bu shaxsning alohida bir tuzilishi, patologik holatidir, lekin u o'smaydi. Psixopat shaxslarda aqlning tanqidiylik sifati saqlanib qolgan bo'ladi, ularning ba'zilari o'z xarakteridagi kamchiliklardan qattiq tashvishlanadi.

**PSIXOPATOLOGIYA** - psixik kasalliklar haqidagi umumiyy ta'lilot.

**PSIXOPROFILAKTIKA** - (yunon. til. «psyuxē» - ruh, jon, «profilaktikos» - saqlaydigan, qo'riqlaydigan) - psixologik xizmatni muhim bir yo'nalishi. **P.** - kasalliklarning oldini olish, aholi salomatligini mustahkamlash, ish qobiliyatini saqlab qolish va uzoq umr ko'rishni ta'minlash maqsadida tashkil qilinadigan psixologik tadbirlar haqidagi ta'lilot.

**PSIXOTERAPIYA** - (yunon. til. «terapia» - parvarish qilish, davolash) - ko'plab psixik, asabiy va psixosomatik xafagarchiliklarda inson hissiyoti, fikrlari, o'z-o'zini anglashiga kompleks davolovchi ta'sirdir (asosan nutq yordamida, biroq faqat uning yordamida emas). Shartli ravishda asosan mavjud alomatlarni yo'qotish yoki yumshatishga qaratilgan klinik maqsadli psixoterapiya va insonga uning ijtimoiy muhitni va o'z shaxsiga nisbatan munosabatini o'zgartirishga yordam berishni vazifa qilib olgan shaxsiy maqsadli psixoterapiya mavjudligi e'tirof qilinadi. **P.** - davo maqsadlarida bemor yoki bemorlar guruhi psixikasiga ta'sir ko'rsatish jarayoni.

**PSIXOFIZIKA** - sezgi organlari psixofiziologiyasidagi oqim. Uning

vakillari qo'zg'ovchi kuchi bilan sezgi miqdori o'rtaida matematik nisbat qonunlarini belgilashga intilganlar.

**PSIXOFIZIK MUAMMO** - psixik hodisalarning fizik hodisalarga munosabati muammosi. **P. m.** - dialektik-materialistik hal qilinishi, dunyo yagonadir, dunyoning birligi uning moddiyligidadir, degan qoidaga asoslanadi.

**PSIXOFIZIK PARALLELIZM** - psixofizik muammoni hal qilishda organizmdagi psixik va fiziologik jarayonlar bir-biriga hech qanday bog'lanmagan, ta'sir qilmagan holda, bir-biriga nisbatan parallel ravishda sodir bo'ladi, deb tushunishidan iborat dualistik qarash.

**PSIXOFIZIK QONUN** - qo'zg'ovchi kuchi bilan hosil bo'lgan sezgi miqdori o'rtaсидаги bog'lanishni ifodalovchi qonun.

**PSIXOFIZIOLOGIYA** - psixikaning moddiy-tabiyy asoslarini o'rjanuvchi soha. «Psixofiziologiya» termini birinchi bo'lib frantsuz faylasufi N.Masias tomonidan joriy qilingan. Hozirgi zamon fanida I.M.Sechenov va I.P.Pavlovning reflektor nazariyasi bilan bog'liqdir.

**PSIXOTEXNIKA** - (yunon. til. «texne» - san'at, mahorat) - psixologiyaning, asosan mehnat psixologiyasi, amaliy masalalarini o'rjanuvchi sohasi. **P.** - psixik jarayonlarni sodir bo'lish xarakteristikasini yaxshilash, mavjud psixik qobiliyatlarni o'stirish va yangilarini shakllantirishda qo'llaniladigan konkret metodik usullar yoki usullar tizimidir.

**PSIXIK HOLATLAR** - psixik hayot shakllari: diqqat, hissiyat, iroda, motivatsiya jarayonlariga aytildi. **P.h.** - (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylilik, tirishqoqlik va h.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

**RATIONALIZM** - bilish nazariyasidagi bilimlarning manbai va ularning to'g'rilingining mezoni aqldir, deb da'vo qiluvchi, tafakkurni hissiy idrokdan ajratib qo'yuvchi idealistik, metafizik oqim. Aslida bilimlarning manbai va mezoni hissiy tajriba, ijtimoiy amaliyotdir.

**REAKTIV PSIXOZ** - ruhiy jarohatga yoki ko'ngilsiz hodisaga javoban vujudga keladigan psixotik pog'onadagi patologik jarayon.

**REAKTSIYA** - (lot. til. «re» - qarshi, «astio» - harakat) - psixologiyada va fiziologiyada ichki va tashqi muxitning turli ta'sirlariga a'zolarning javob reaksiyasi.

**REAKTOLOGIYA** - 1922-1930 yy. rus psixologiyasidagi inson

psixikasini tashqi qo'zg'ovchilarga nisbatan qaytariladigan reaktsiyalardangina iboratdir deb hisoblovchi mexanistik oqim.

**REPRODUKTIV** - ( lot. til. «re» - boshqatdan, yangidan, «praduktio» - ishlab chiqarish, mahsulot) - fikrlash yoki xayol qilishni bir turi.

**REFERENT GURUX** - (lot. til. «referens» - xabar beruvchi, bildiruvchi) - shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi. **R. g.** - kishi uchun e'tiborli bo'lgan, qadriyatları, fikrashi, hulq-atvor normalari va qoidalarini so'zsiz tan oluvchi va ularni o'zi uchun qabul qiluvchi kishilar guruhidir.

**REFLEKS** - (lot. til. «reflexus» - aks ettirish) - organizmning markaziy nerv tizimi orqali ichki yoki tashqi muhit omillari ta'sirida retseptorlar qo'zg'alishiga javoban ko'rsatiladigan reaktsiyasi. Refleks organizm ichki a'zolarning va ularning o'zaro ta'sirini tartibga keltirishda, bir butunligini saqlash hamda yashash sharoitiga moslashishda katta ahamiyatga ega.

**REFLEKSIYA** - (lot. til. «reflexus» - aks ettirish) - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirish. **R.-** odam bilimlarining o'z - o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatlari va psixik holatlariga qaratilishi.

**REFLEKSOLOGIYA** - XX asr bosolarida rus psixologiyasidagi tabiiy ilmiy oqim bo'lib, unga rus psixiatri V.M.Bexterev asos solgan. Refleksologiyaning predmeti - bosh miya ishtirokida sodir bo'ladigan barcha turdag'i reflekslardan iborat edi.

**RETSIPIENT** - (lot. til. «recipientis» - qabul qiluvchi kishi) - o'ziga yo'llangan xabarni qabul qilib oluvchi kishi.

**RETSEPTOR** - (lot.til. «recipere» - qabul qilmoq) - analizatorning qo'zg'alishini qabul qiluvchi ichki qismi.

**RIVOJLANISH** - oddiydan murakkabga pastdan yuqoriga o'tishdan iborat o'zgarish, miqdor o'zgarishlardan sifat o'zgarishlarga o'tadigan yangilikning tug'ilishi, eskilikning o'lishdan iborat jarayon.

**RODJERS KARL RENSON** - (1902-1987 yy.). Amerikalik mashhur psixolog. U 1902 y. to'g'ilgan. Gumanistik psixologiya asoschilaridan biri. «Mijozga markazlashgan terapiya» (1954) asarini muallifi. Shaxs yadrosi sifatida «Men» - kontseptsiyasini ko'rgan bu «Men - real» va «Men - ideal»ning o'zaro ta'rif dinamikasidan iborat. Uning ta'rifiga ko'ra shaxsda kelishib ishlaydigan ikki instantsiya mavjud: individual tajriba va atrofdagilarning dolzarb bahosidan kelib chiquvchi odamning o'z

tasavvurlari va o'zini baholashidan iborat bo'lgan real «men». Inson orzu qilgan ideal «men» mijozga qaratilgan ob'ektiv psixoterapiyani ishlab chiqdi. Uning asosida mijozga maslahat bermaslik va uning xulqini baholamaslik, lekin muammolarini hal qilishni talab qiluvchi ijodiy qobiliyat yotadi.

**ROL** - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatidagi huquq va burchlaridan iborat.

**RUBINSHTEYN SERGEY LEONIDOVICH** - (1889-1960 yy.). Mashhur rus psixologи va faylasufi. S.L.Rubinshteyn 1889 y. Odessada advokatlar oilasida tug'ilgan. Psixologiyadagi faoliyatli yondashuv nazariyani asoschilaridan biri. Faylasuflik va psixologik ta'limni Marburgda olgan. 1942 - yildan Psixologiya instituti direktori bo'lган. 1943 y. M.V.Lomonosov nomli MDU qoshida psixologiya kafedrasи, so'ng bo'limini ochgan, Rossiya FA Falsafa institutida psixologiya sektorini ochgan (1945). 1922-yil yozilgan «Ijodiy havaskorlik tamoyili» maqolasida «ong va faoliyat birligi tamoyili»ni ishlab chiqqan, bu tamoyil XX- asrni 30-yillarida faoliyatli yondashuv yo'nalishiga asos bo'lган. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib S.L.Rubinshteyn psixologiya yutuqlarini umumlashtirishga harakat qilgan. Olib borgan ishlari 1940 y. «Umumiy psixologiya asoslari» asarida yakun topgan. Bu asar Davlat mukofoti bilan taqdirlangan va ilg'or rus psixologlari tomonidan yuqori baholangan.

**SANGVINIK** - (yunon. til. «sangviuis» - qon) - temperament turlaridan biri. Bu tur chaqqon, harakatchan, ta'surotlari tez-tez o'zgarib turadigan, ta'sirlanuvchan, biror faoliyatga g'ayrat bilan kirishib, tez sovub ketishi ham mumkin. **S.** - boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilish hislatlari bilan sifatlanadi. **S.** ning fiziologik asosini nerv faoliyatining kuchli, muvozanatli va chaqqon tipi tashkil qiladi.

**SEVGI** - bu nafaqat xissiyot, balki boshqalarini seva olish qobiliyati va sevilish uning asosiy mezoni - «insoniy fazilatlar» hisoblanadi.

**SEZGI** - qo'zg'atuvchilarning idrok a'zolari retseptorlaritga ta'siri tufayli vujudga keladigan, ob'ektiv dunyo xossalaringin sub'ektiv in'ikosidir. **S.** - psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat. Voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

**SEZGI A'ZOLARING O'ZIGA XOS QUVVATI** - sezgi a'zolarning maxsus quvvati haqidagi qonun bo'lib, bu qonunga binoan sezgi a'zolari tashqi olamdagи narsa va hodisalarning ta'sirini aks ettirmay, balki sezgi

a'zolarining o'ziga xos quvvatini qo'zg'ovchi tashqi turtki deb hisoblaydi (M.Myuller).

**SEZGI CHEGARASI** - sezgining mutloq chegarasi. Minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar - bilinmas ta'sirini sezishga sezgining kuchi chegarasi, qo'zg'ovchining eng yuqori kuchga ega bo'lgan ta'sirini sezishga - sezgining yuqori (maksimal) chegarasi deyiladi.

**SEZGIRLIK** - o'ta sezuvchanlik, sezgi a'zolarining o'ziga ta'sir etib turgan qo'zg'ovchilarning salgina yoki unchalik farq qilmaydigan ta'sirini ajrata olish qobiliyati.

**SELE GANS** - (1907-1982 yy.). Mashhur Kanada biologi va vrachi. Umumiy moslashuv sindromi tushunchasiga asoslangan stress haqidagi ta'limotni ishlab chiqqan. Bu organizmning psixofiziologik resurslarini qiyin sharoitga moslashtiruvchi neyrogumoral reaksiyalar yig'indisi ekanligini ko'rsatgan. Tajribalarda G.Sele ta'limoti asosida ekstremal sharoitlarda stress turli shakllarga ajratilgan va shu bilan birga psixologik stress tushunchasi shakllantirilgan.

**SENZITIVLIK** - ( lot. til. «sensus» - hissiyat) - turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi.

**SENSIBILIZATSIYA** - (lot. til. «sensibilis» - sezuvchan) - sezgi qonuniyatlarini biri. S. - ichki omillar ta'siri natijasida analizatorlar sezgirlingining ortib ketishi. *Masalan*, engil muskul harakati, yuzni sovuq suv bilan yuvish, kuchsiz tovush qo'zg'ovchilari ko'ruv organlarining sezgirlingini orttiradi.

**SENSOR SEZGILAR** - (lot. til. «sensus» - sezgi, his) - sezgi a'zolariga taalluqli sezgilar. Sensorika sezgi va idrokni umumlashtiruvchi tushunchadir.

**SESKANUVCHANLIK** - tirik organizmlarning ta'sirlarga biologik ahamiyata ega javob qaytarish qobiliyati.

**SINESTEZIYA** - (yunon. til. «sineistesus» - birgalikda sezish) - sezgi qonuniyatlarini biri. S. - turli xildagi sezgilarning o'zaro ta'siri natijasida qo'shib ketishi (masalan, eshitish va ko'ruv sezgilari va h.). S. ning ko'proq tarqalgan shakli rangdor eshitish, ya'ni ma'lum bir musiqa tovushini sezish bilan birga, shunga monand bo'lgan ko'ruv tasavvurining (muayyan rangning) hosil bo'lishidir. S. hodisasi fiziologik jihatdan analizatorlarning haddan tashqari kuchli o'zaro ta'sir etishidir. S. hodisasi jumladan, kompozitorlarda ko'p uchragan.

**SIMPATIYA** - (yunon. til. «simpatia» - rahmdillik) – emotsional holat. S. - bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik, ishonch va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi. S. - o'zaro yoqtirib qolish, bu sevgining ilk bosqichi hisoblanadi. Bunda asosan sevgi ob'ektning tashqi jozibasi rol o'yndaydi.

**SINTEZ** - (yunon. til. «sintezis» - qo'shish, birlashtirish) – fikr ob'ekti hisoblangan narsa va hodisalarning tarkibiy qismlari, sifat hamda xususiyatlarini fikran yoki amaliy ravishda bir butun qilib qo'shishdan iborat bo'lgan aqliy operatsiya. *Masalan*, narsa va hodisalarning muhim belgilari qo'shilishidan yaxlit bir tushuncha hosil bo'ladi. S. - tafakkur hamda xayolning ijodiy faoliyatini tashkil qiladi. S. - bevosita analiz bilan hamda umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish va h. kabi aqliy operatsiyalar bilan bog'liqdir.

**SKEPTITSIZM** - har qanday bilishning aniq emasligini ta'kidlovchi ob'yektiv haqiqatning mavjudligiga shubhalanuvchi falsafiy oqim, hamma narsaga shubha bilan qarash, hech kimga ishonmaslikdan iborat salbiy xarakater xislati.

**SOLIPSIZM** - birdan-bir reallik deb faqat o'zining «Men»ini, ya'ni o'zini-o'zi anglashni yoki individual ongni tan olib, tashqi dunyoning mavjudligini inkor qiluvchi sub'ektiv idealistik falsafiy oqim.

**SOFIZM** - (yunon. til. «sofizma» - uydirma, ayyorlik) - tafakkur jarayonida ikki ma'noli tushunchalarga asoslangan hodisalarning alohida tomonlarini ajratib olib, ataylab xato qurilgan, haqiqat deb aytiladigan mulohazalar.

**SOTSIAL INDIVID** - barcha kishilar uchun umumiyligi bo'lgan belgilar, qurollar bilan ishlashda bog'liq bo'lgan maxsus insoniy tavsiflarni aks ettirish, jamiyatda qabul qilingan norma va qoidalarni hisobga olish, sotsial vazifalarni bajarishdir. Gap shaxsiy yoki individual jihatlar to'g'risida ketayotgani yo'q.

**SOTSIAL MUHIT** - insonning aniq maqsadlar rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosi.

**SOTSIAL PSIXOLOGIYA** - ijtimoiy psixologiya; ijtimoiy ongning turli ijtimoiy guruhlarning kayfiyatları, odatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari bilan sifatlanadigan bir tomoni. Ijtimoiy psixologiyaning tabiat, tarkibi, o'zgarish qonunlari va tarkib topish yo'llari haqidagi fan. S.p. ning predmeti - shaxsning jamoadagi hulqiy xususiyatlarini, kishilarnig birgalikdagi

faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**SPIRITIZM** - (lot. til. «spiritus» - ruh, arvoh) - o'lgan odamlar «arvohlar», ruhlarning narigi dunyoda yashashini va ular bilan mediumlar vositachiligi orqali aloqa qilish mumkinligi haqidagi bema'ni xurofot.

**SPIRITALIZM** - (lot. til. «spiritualis» - ruhiy, ilohiy) - ob'ektiv reallikni, materiyaning birlamchilagini inkor etib, dunyoning faqat «ilohiy mohiyati»ni tan oluvchi g'ayri ilmiy reaktsion falsafiy oqim.

**SPORT PSIXOLOGIYASI** - sportchilar shaxsi va faoliyati xususiyatlarini, ularning psixologik jihatdan tayyorligining shart-sharoitlari, musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq psixologik omillarni o'rganadi.

**STATISTIK METOD** - (lot. til. «status» - holat, yunon. til. «metodos» - tadqiqot) - o'tkazilgan tadqiqot natijalarini miqdoriy hisoblab chiqish usuli.

**STRESS** - (ingl. til. «stress» - zo'riqish) - kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat.

**SUB'EKT** - ob'ektiv dunyoni biluvchi, uni o'zining ehtiyoj va qiziqishlariga moslab o'zgartiruvchi odam, ongli mavjudot.

**SUB'EKTIVIZM** - birdan-bir reallik deb faqat individual ongni, sezgilarni tan olib, moddiy dunyoning mavjudligini inkor qiluvchi idealistik oqim, narsa va hodisalarini, ayniqsa, shaxsni baholashga shaxsiy g'arazlik nuqtai nazaridan yondashishdan iborat salbiy xarakter xislati.

**SUB'EKTIV IDEALIZM** - fan va ijtimoiy amaliyotning dalillariga qarama-qarshi o'laroq, moddiy dunyoning ob'ektiv ravishda mavjudligini inkor qilib, reallik deb faqat individual ong, sub'ektiv sezgi obrazlarini tan oluvchi idealistik oqim.

**SUHBAT** - psixologiya metodlaridan biri, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bavosiga ma'lumot olinadi.

**SXOLASTIKA** - o'rta asrlar feodal jamiyatidagi diniy idealistik falsafaning umumiyl nomi hisoblanib, cherkov aqidalariga asoslangan bo'lib, mavhum mulohazalar, mantiqiy nayranglar bilan ish ko'rishlari bilan sifatlanadi.

**TABIAT** - shaxsning kimligini belgilab beruvchi temperament, xarakter, e'tiqod va odat kabi individual xususiyatlarning yig'indisi.

**TABIIY EKSPERIMENT** - (lot. til. «experimentum» - sinov, tajriba) - tekshiriluvchini o'ziga bildirmagan holda uni o'yin, o'qish yoki mehnat faoliyatida o'rganishdan iborat psixologik tajriba.

**TALANT** - (yunon. til. «talanron» – dastlab o'lchov, mezon, keyin esa ko'chma ma'noda – qobiliyatlar darajasi) – inson qobiliyatlarining, eng avvalo u yoki bu turdag'i faoliyatda ulkan yutuqlarga erishishini ta'minlovchi maxsus yuksak rivojlanish darajasi.

**TARIXIY PSIXOLOGIYA** - psixika va ongning paydo bo'lishi hamda ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganadigan psixologiyaning maxsus sohasi.

**TASAVVUR** - sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan narsa va xodisalrning yaqqol hissiy obrazi.

**TAFAKKUR** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi, idrok va tasavurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va xodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi. Tafakkur jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida xukm, tushuncha, xulosa shakllarida yuzaga keladi. T. - turli masalalarni (nazariy va amaliy) echishga qaratilgan va bu yumushni ado etishni (javob topishni) ta'minlaydigan ko'plab psixik jarayonlar, harakatlar, holatlardir. Tafakkurni funktional tizim sifatida jalg qilish qisman ongli, qisman odatlar, malakalar va asab tizimi tomonidan yuzaga keltirilgan insonning ilgarigi taraqqiyoti, tarbiyasi, o'z-o'zini shakllantirishdan iborat beixtiyor harakatlari tufayli amalga oshiriladi.

**TASHABBUSKORLIK** – xarakterning qimmatli xislati bo'lib, bu xislat ko'pchilik kishilarda ommaviy tus olgandir.

**TA'M BILISH** - sezgi turi (shirin, achchiq - chuchuk, tuzli). Analizator til o'zagidagi nerv tug'unlari hamda bosh miya po'stloq qismidagi ta'm bilish markazidadir.

**TAQQOSLASH** – narsa va xodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

**TAHLIL (ANALIZ)** – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob'ektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi.

**TEMPERAMENT** - (lot.til. «temperamentum» - qismlarning bir-biriga munosabati, tegishli muvofiqligi, mutanosibligi) – shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. Bu kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotSIONAL tomonlari bilan sifatlanadi. T. - inson hulq-atvori va psixik jarayonlarining dinamik xarakteristikasi bo'lib, ularning tezligi, o'zgaruvchanligi, samaradorligi, ishchanligi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

**TEOLOGIYA** - barcha diniy aqidalar va xurofotlarni ilmiy jihatdan

asoslashga intiluvchi diniy ta'limot.

**TEPLOV BORIS MIXAYLOVICH** - (1896-1965 yy.). Mashhur rus psixolog B.M.Teplov 1896 y. tug'ilgan. Faoliyatining ilk yillarida idrok tasavvur va tafakkur bo'yicha ilmiy ish olib borgan. So'ng individual farqlar ustida ish olib borgan. Differentsial psixologiya ilmiy maktabini asoschisi. Qobiliyatlar kontseptsiyasini ishlab chiqqan. I.P.Pavlovning oliv nerv faoliyati tiplari ta'limotiga asoslanib, odamning individual-psixologik farqlarining fiziologik asoslarini o'rGANISH dasturini ishlab chiqqan. Natijada, individual farqlar nazariyasini taklif qilgan. O'z ishlarida san'at psixologiyasi muammolarini o'rGANISHGA alohida e'tibor bergan.

**TEST** - (ingl. til. «test» - sinamoq, tekshirmoq) - standartlashtirilgan psixologik sinov. Buning natijasida u yoki bu xoldagi psixik jarayon baholanadi, shaxs bir-butunligicha yoki uning ayrim qismlari o'rGANILADI.

**TIL** - inson aloqalari, tafakkuri uchun axborotni asrash va avloddan avlodga etkazib berish vositasi bo'lib xizmat qiladigan belgilar tizimidir.

**TRANKVILIZATOR** - tinchlantiruvchi psixofarmakologik moddalar guruhi.

**TUSHUNISH** - biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

**TUSHUNCHА** - voqelikdagi narsa va xodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

**TORNDAYK EDWARD LI** - (1871-1949 yy.). E.Torndayk bixevoirizm asoschilaridan biri hisoblanadi. U o'zining ilk tajribalarini mehribonlik uylari bolalari bilan o'tkazgan. Universitet ma'muriyati bolalar bilan tajriba o'tkazishni ma'n qiladi va u keyinchalik hayvonlar bilan tajriba o'tkazadi. U dunyodagi birinchi eksperimental zoopsixologiya laboratoriyasini ochdi. U dastlab jo'jalar keyinchalik it va mushuklarda tajribalar o'tkazadi. U o'z tajribalarining natijalari asosida 1898 y. «Hayvonlar intellekti yoki hayvonlardagi assotsiativ jarayonlarning eksperimental o'rGANILISHI» nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. U o'zining izlanishlarida xulq motivatsiyasining «quyi darajalari»ni o'rGANIB, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo'lish xususiyatini ochishga intilgan. E.Torndayk organizmning javob reaksiyasi yig'indisini - xulq, qo'zg'aluvchilarining murakkab tizimini vaziyat, tashqi sharoit

ekanligini tushuntiradi. Shuning uchun inson ongi bilan emas, balki vaziyat bilan boshqariladi, degan g'oyani ilgari surgan. Natijada, inson ruhiy dunyosi mexanik ravishda reaktsiyalar yig'indisi bilan tenglashib qoladi. E.Torndayk 1912-yil Amerika psixologlari assotsiatsiyasi prezidenti etib saylandi. U faoliyati davomida 500 dan ortiq ilmiy asar yozgan.

**UZNADZE DMITRIY NIKOLAEVICH** - (1888 – 1950 yy.). Gruzin psixologi va faylasufi. D.N.Uznadze 1888 y. Kutaisi guberniyasiga qarashli Sakara qishlog'ida xristian oilasida tug'ilgan. «Ustanovka nazariyasi» ni asoschilaridan biri. Tbilisi Universitetini asoschilaridan biri va u erda psixologiya bo'limini ochgan. Gruziya FA psixologiya instituti direktori bo'lgan. Ko'rsatma berish sub'ektning yaxlit nodifferentsial va ongsiz holati bo'lib, u faoliyatdan oldin yuz beradi hamda psixika va jism orasidagi xalqa bo'lib xizmat qiladi. Bevositalik postulatini yo'qotishga imkon beradi. Ko'rsatma berish sub'ektni ehtiyoji bilan ehtiyojni qondirishni amalga oshiruvchi ob'ektiv holatini to'qnashuvidan hosil bo'ladi. D.Uznadze ko'rsatma berish o'zgarishlarining qonuniyatlarini o'rgangan. Psixotexnika, pedologiya, yosh va pedagogik psixologiya, zoopsixologiya masalalarini ishlab chiqqan. Tilni o'rGANISH tushunchalarini anglash ishlariga alohida e'tibor bergen. Uning asosiy qarashlari «Nazariy izlanishlar va tajribalari natijasida uning o'rnatish nazariyasining asosiy ko'rinishlari» (1961), «Ko'rsatma berish psixologiyasining eksperimental asoslari» (1966) asarlarida aks ettirilgan.

**UXTOMSKIY ALEKSEY ALEKSEEVICH** - (1875-1942 yy.). Mashhur rus fiziologi A.A.Uxtomskiy 1875 y. Ro'binsk shahrida dunyoga kelgan. I.Sechenovning nerv-psixik aktlarning biologik va sistemalash xarakteri haqidagi g'oyalarini rivojlantirib, nerv markazi va hulq tarkibining asosiy ish tamoyili bo'lgan dominanta haqidagi ta'limotni ilgari surdi. Bu ta'limot miyaga reflektor yoynarining yig'indisi, deb qarovchi g'oyaga qarshi qo'yildi. A.Uxtomskiyning fikricha, har bir kuzatilayotgan harakat samarasini bosh miya po'stlog'i va po'stloq osti markazlariga bo'lgan dinamik ta'sir xarakteri organizmning dolzarb ehtiyojlari organizmning biologik tizim sifatidagi tarixi bilan belgilanadi. Miyaga muhitni idrok qilish, his qilish va aks ettirish organi sifatida qarash lozim, degan fikrni ilgari suradi. A.Uxtomskiy psixik hodisalar va ular tavsiyining turli ko'rinishlarini dominanta mexanizmi bilan tushuntiradi. *Masalan, diqqat, uning yo'nalishi, to'planishi, tanlash va tafakkurning predmet xarakteri sifatida muhitning predmetlarga bo'linishini*

A.Uxtomskiy 3 bosqichdan iborat jarayon deb ataydi: mavjud dinamikaning mustahkamlanishi, organizm uchun biologik muhim qo'zg'atuvchilarni ajratib olish, dominanta va tashqi qo'zg'atuvchilar kompleksi o'rtasida adekvat aloqa o'rnatish. A.Uxtomskiyning ishlari ko'plab yangi fiziologik va psixofiziologik nazariyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

**UMUMLASHTIRISH** – vogelikdagi narsa va xodislarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

**UNUTISH** – eslash va yod bo'lib qolgan yoki o'zlashtirilgan materialni qayta xotirlash imkoniyatining asta-sekin so'nib borishini aks ettiruvchi jarayondir.

**UOTSON DJON** - (1878-1958 yy.). Amerika psixologi, bixevoirizm asoschisi Dj.Uotson 1878 y. tug'ilgan. Psixologiya fanini bevosita his qilinadigan sub'ektiv hodisalar haqidagi fan, deb qarovchilarga qarshi chiqib, psixik hodisalarni o'rganishga yangicha yondashishni targ'ib qildi. O'z nuqtai nazarini 1913 y. yozilgan axborotnomada aks ettirdi. Introspektiv psixologiyaga qarshi tabiiy fanlardagi kabi ob'ektiv metodlarga tayanish, psixologiyaning predmeti sifatida odamning tug'ilganidan o'limigacha bo'lган xulqini ko'rishni taklif qildi. D.B.Uotsonning fikricha, psixologik tadqiqotlarning asosiy vazifasi xulqni oldindan aytib berish va uni nazorat qilishdan iborat. D.B.Uotsonning qarashlari «stimul-reaktsiya» psixologiyasida rivojlantirildi. Yaxlit kontseptsiya bo'lib shakllanmagan bu yo'nalishda qator nazariyalar keng targ'ib qilindi. Bular qatoriga B.F.Skinnerning operant mustahkamlanish nazariyasi, A.Banduraning ijtimoiy o'rgatish tamoyili va h. kiradi.

**USTANOVKA** - (rus. til. «ustanovka» - yo'nalish, yo'naltirish) - kishining tevarak-atrofdagi odamlarga yoki ob'ektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holati. **U.** - shaxsning muayyan faoliyatni bajarishga qaratilgan, avvalgi tajribasi bilan belgilangan tayyorgarligi; kishining uni muayyan tarzda harakatga undovchi tayyorgarlik shakli. Tayyorgarlikda idrok yoki harakatning ustunligiga qarab, **U.** sensor va motor turlariga bo'linadi. **U.** terminini psxologiyaga D.N.Uznadze kiritgan.

**UTILITARIZM** - ahloqda faqat foyda manfaatni tan oluvchi individualistik oqim, har bir narsadan foyda olishga doimiy intilishdan iborat salbiy xarakter xislati.

**O'YIN** - faoliyat turlaridan biri. Bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarii aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak-atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyatidir.

**O'YLAR** - insonning hayotidagi kelajak hayot manzaralarini aks ettiradigan shirin tasavvurlari, fantaziya va orzu-niyatlaridir.

**O'QISH** - shaxsning bilim va faoliyat usullaripi egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

**O'QUV MOTIVLARI** - bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yo'naltirishdir.

**FALSAFA** - tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonunlari haqidagi fan.

**FANATIZM** - o'z sub'ektiv qarashlariga haddan tashqari berilib, boshqalarning e'tiqodlariga chidab tura olmaslikdan iborat salbiy xislat, o'z e'tiqodiga ortiqcha hirs qo'yish.

**FANTAZIYA** - hayolning borliqdan, haqiqatdan biroz uzoqlashuv jarayonidir.

**FAOLLIK** - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi. Psixik faollik - bu o'zaro ta'sir, shu asosda faollik ko'rsatish bilan sifatlanadi.

**FAOLIYAT** - insonning voqelikni, o'zini-o'zi ijodiy o'zgartirish, takomillashtirish, mukammallashtirishga yo'naltirilgan faolligi. Psixologik jihatdan ichki ehtiyojni qondirish deb talqin etiladi. F. - insongagina xos, ong bilan boshqariladigan extiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi.

**FAOLIYAT MAHSULINI TAHLIL QILISH** - psixologiyaning ilmiytadqiqot metodlaridan biri; shaxsning bilim va mahorati, qobiliyati, qiziqishlari, didi, faoliyat turiga bo'lgan munosabatlari va uning o'zgarishini o'rganish usuli.

**FARQ QILISH CHEGARASI** - qo'zg'ovchilar o'rtasidagi bilinar - bilinmas farqni sezish. Bu avvalgi qo'zg'ovchilar bilan keyingi qo'zg'ovchilar o'rtasidagi qandaydir farq borligini sezsa olishda ifodalanadi.

**FENOMEN** - (yunon.til. «fenomenon» - yuz beruvchi, sodir bo'luvchi) - xis-tuyg'ular bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha. Fenomen idealistik falsafadagi ob'ektiv voqelikni aks ettirmaydigan, faqat inson ongida mavjud bo'lgan sub'ektiv hodisa.

**FENOMENALIZM** - falsafadagi ob'ektiv dunyoning mavjudligini inkor qilib, faqat ong hodisasini birdan-bir reallik deb hisoblovchi g'ayri ilmiy sub'ektiv idealistik ta'lilot.

**FENOTIP** - (yunon. til. «fayno» - ro'y bermoq, «tipos» - iz, tasvir) - organizmning individual taraqqiyoti jarayonida tarkib topgan barcha belgi va xususiyatlar yig'indisi.

**FETISH** - (fr. til. «fetishe» - sehrgarlik) - taqvodor kishilarning tasavvuriga ko'ra, unga sig'ingan kishilarning mushkulini oson qiluvchi g'ayri tabiiy, sehrli kuchga ega bo'lgan buyum. *Masalan*, tumor, band, turli shakldagi toshlar va h.; ko'r-ko'rona sajda qilish ob'ekti.

**FETISHIZM** - najot qidirib turli narsalarga cho'qinish. F. - ko'r-ko'rona ishonishni targ'ib qiladi.

**FEXNER GUSTAV TEODOR** - (1801-1887 yy.). Nemis fizigi, fiziologi va psixologgi, psixofizika asoschisi. G.Fexner «Psixofizika elementlari» nomli asar muallifi (1860). Bu asarda u alohida fan psixofizikaga asos solish g'oyasini ilgari surgan. Bunga ko'ra fan predmeti bir-biri bilan funktsional bog'langan ikki hodisa: psixik va fizik jarayonlardir. Bu g'oya eksperimental psixologiyaning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi, sezgilar sohasida olib borilgan tajribalari bir nechta qonunlarni, shu qatorda psixofizikaning asosiy qonunini asoslab berishga imkon berdi. G.Fexner sezgilarni o'lchash metodlarini ishlab chiqdi. Quyoshni kuzatish yo'li bilan sezgilarni tekshirish ishlaridan so'ng qisman ko'r bo'lib qoldi va falsafa bilan shug'ullandi. G.Fexner har tomonlama komil inson edi.

**FIDEIZM** - (yunon til. «fides» - ishonch, e'tiqod) - ilm-fandan ko'ra e'tiqodni afzal ko'rvuchi reaktsion nazariya.

**FIZIOGNOMIKA** - (yunon. til. «fizik» - tabiat, «gnomon» - biladigan) - odam yuz qirralari, tuzilishi, ifodalari va ularning nisbati orqali odamning xususiyatlarini o'rganadigan xarakterologiya bo'limi.

**FILOGENEZ** - (yunon. til. «file» - qabila, urug', «genesis» - paydo bo'lish) - muayyan tirik mavjudot turining erda hayot boshlanganidan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni.

**FLEGMATIK** - (yunon. til. «flegma» - balg'am, limfa, shilimshiq pard) - osoyishta, o'zini og'ir-vazmin tutadigan, barqaror kayfiyatli temperament turi bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emotsiyal xolatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi. F.ning fiziologik asosi nerv tizimining kuchli, muvozanatli va inert tipidan iboratdir.

**FOBIYA** - (yunon. til. «fobos» - qo'rqinch). Ma'lum bir sharoitlarda asossiz ravishda qo'rqish va tashvishlanishdan iborat, engish mumkin bo'limgan muttasil psixopatalogik holat. *Masalan, agarofobiya* maydondan, katta ko'chadan qo'rqish, **kaustofobiya** - yopiq joyda, fazoda qolishdan qo'rqish, **monofobiya** - yakka qolishdan qo'rqish, **nazofobiya** - kasal bo'lib qolishdan qo'rqish, **atropofobiya** - ko'pchlikdan, xaloylikdan qo'rqish va h.

**FREYD ZIGMUND** - (1856-1939 yy.). Avstriya psixolog, psixiatri, nevropatologi, psixoanaliz asoschisi. Z. Freyd XIX asrning 80-yillaridan amaliy tibbiyat sohasida ishlagan. Fiziolog va vrach-nevropatolog sifatida ish boshlab ko'p kasalliklarning manbai bemor tomonidan anglab etilmagan komplekslardir degan xulosaga kelgan. Birinchi ilmiy ishini Ya.Breyer bilan birga 1895 y. chop ettirgan. Bu ish isteriyaning kelib chiqishi va uni gipnoz bilan davolash muammosiga bag'ishlangan. Keyinchalik Z.Freyd gipnozni qo'llashdan voz kechgan va psixoanaliz yordamida davolash usulini yaratgan, bunda assotsiatsiya, tushlar bemorning noto'g'ri faoliyatlarini tushuntirishga asoslangan. Olingan material asosida shaxs tuzilishi haqidagi kontseptsiyani yaratgan va 3-ta darajani ajratgan: ong, ong osti, ongsizlik. Z.Freyd ta'limoti XX asr boshlarida keng tarqalgan. Uning ko'plab shogird va izdoshlari, keyinchalik yangi kontseptsiya va nazariyalar ishlab chiqishgan. Lekin, Z.Freyd ta'limotining ayrim o'rnlari izdoshlari tomonidan ham rad etilgan.

**FREYDIZM** - inson xulqining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ongsiz mayl (ayniqsa, jinsiy mayl) deb hisoblab, ongli faoliyatning ahamiyatini, ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini kamsitadigan idealistik nazariya.

**FRENOLOGIYA** - (yunon. til. «fren» - aql, «logos» - ta'limot) - inson psixik xususiyatlari bilan miya qutisi tuzilishi o'rtasida bog'lanishlar bor deb da'vo qiluvchi soxta ta'limot. E.ning da'vosicha, muayyan psixik xususiyatning rivojlanishi miyaning biror qismning o'sishiga olib keladi, bu esa miya qutisining tegishli qismini qabariq shaklga keltiradi. Aslida, psixik funktsiyalar, xususiyatlar miya yuzasining relefi bilan belgilanmaydi, miya qutisining shakli miyaning shakliga mutloq ravishda mos kelmaydi.

**FROMM ERIX** - (1900-1980 yy.). Nemis - amerika psixologи va faylasufi, neofreydizm namoyandalaridan biri. Asosiy muammo inson borlig'idagi qarama-qarshiliklar va ular insonning tabiat, boshqa kishilar va o'z-o'zi bilan tabiiy, mutanosib aloqasining buzilishida namoyon bo'ladi, deb bilgan. Gumanistik psichoanalizning psixoterapevtik metodikasini ishlab chiqqan. Bu

metod inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. E.Fromm fikricha, insonning hayot kechirish muammosiga yagona mos javob insonning o'z «Men»ini topishga yordam berish, muhabbatdir. Bu nuqtai nazarni u «Muhabbat san'ati» asarida (1964) aks ettirib, hozirgi jamiyatni sog'lomlashtirishga yo'l insonning axloqiy yangilanishi va ruhan tozalanishi orqali borishini ta'kidlagan.

**FRUSTRATSIYA** - (lot. til. «frustration» - aldanish, bekorga kuzatish, bekor umidvor bo'lish, muvaffaqiyatsizlik, behuda ko'rish, xafagarchilik, rejalarining izdan chiqishi) - rejalarining izdan chiqib, maqsadning yo'q bo'lib ketishi. F. - kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan, ob'ektiv ravishda engib bo'lmaydigan, yoki sub'ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixik holati. F. - kishining xarakter xususiyatlarida, turli kechinmalarida, xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. F. ham, boshqa psixologik holatlari singari, kishi xarakteriga xos yoki faqat kishining yangi xarakter xislatlarining boshlanishini ko'rsatuvchi, va shu bilan birga, o'tkinchi holat bo'lishi mumkin. *Masalan*, F.ning agressiv holati ko'pincha o'zini tuta olmaydigan, qo'pol odamga xos bo'lsa, depressiya holati o'ziga ishonmaydigan odamga xosdir. Ba'zi odamlar eng yuvosh kishilarda ham F. holatini vujudga keltirishi mumkin, lekin bu holat uzoq davom etmaydi.

**FUNKTSIONAL PSIXOLOGIYA** - XIX asr oxiri va XX asr boshida psixologiyaning predmeti psixik elementlar va ularning tuzilishi hamda munosabatlari emas, balki psixik funktsiyalaridan iboratdir, degan g'oyani ilgari so'ruvchi ilmiy ta'limot.

**XAYOL** - mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayoni. U ixtiyorsiz va ixtiyorli, ijodiy (produktiv) va qayta tiklovchi (reproduktiv), aktiv va passiv hayol turlariga ajratiladi. X.-insonning sub'ekt sifatidagi ongidan butun holda idrok qilinmagan yoki sezgi a'zolari yordamida idrok etila olmaydigan ob'ektlarning in'ikosining (tasavvurlar, sxemalar va boshqa obraz-modellarning) yoki jo'rttaga paydo bo'lishiga yoxud ataylab qurilishiga olib keluvchi bilish faolligidir (*masalan*, kelajakni mo'ljallagan tarix hodisalari idrok etila olmaydigan yoki umuman mavjud bo'limgan dunyoning voqealari – miflar va ertaklardagi hayri-tabiiy personajlar va b.)

**XARAKTER** - (yunon. til. «xarakter» - xususiyat, belgi) - kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga,

atrofdagi narsa va xodisalarga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Xarakter muayyan sharoit xattiharakatlarni belgilab beradigai individual-psixologik xususiyatlar yig'indisidir. Xarakterda inson uchun xos bo'lgan hulq-atvor, standart vaziyatlarda qo'llaniladigan, hayotiy vazifalarni qo'yish va echish usullari o'z ifodasini topadi.

**XARAKTEROLOGIYA** - xarakter haqidagi, xarakterning mohiyati, tuzilishi, tarkib topishi va rivojlanishi haqidagi ta'limot.

**XARBIY PSIXOLOGIYA** - psixologiya sohasi. Xarbiylar shaxsini, turli harbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini, xarbiy jamoalarning jangovar tayyorgarlik metodlarini o'rganadi.

**XIROMANTIYA** - (yunon. til. «xeyre» - qul, «mantia» - fol ochish, bashorat qilish) - xarakterologiyani bir bo'limi. X. - qulning kaftiga qarab fol ochib, kishining kelajagi, taqdir-qismati haqida «oldindan bashorat qilish» dan iborat usulidir.

**XOLERIK** - (yunon. til. «xolerikus» - safro, sariq o't) - tez, g'ayratli, ishga ehtiros bilan kirishadigan temperament turi bo'lib, xissiyot jo'shqinligi, kayfiyatning tezda o'zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman xarakatchanligi bilan ifodalananadi. X. ning fiziologik asosi nerv tizimining kuchli, ammo muvozanatsiz, ya'ni qo'zg'olish jarayoni tormozlanishdan ustun turadigan, qo'zg'aluvchan tipdir.

**XORNI KAREN KLEMENTINA** - (1885-1952 yy.). Amerika psixologi, neofreydizm vakilasi. 1932 yilgacha Germaniyada klinik faoliyat olib borgan, so'ng AQShga migratsiya qilingan. U bezovtalik, tashvish, hadikka asoslangan nevrozlarning rivojlanishi, insonlardagi, ayniqsa, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga asoslanadi, deb aytgan. Agar hayotiy holatlar (qo'rqish, mehrning yo'qligi, haddan tashqari erkalash) bolaning tashvishlanishiga olib kelsa, u holda o'zida ishonchsizlik atrofdagilardan qo'rqish kabi turg'un xarakter xususiyatlari paydo bo'lishi mumkin, deb uqtiradi. Olimaning fikricha, har bir odam o'z shaxsini mukamallashtira oladi, lekin bu tabiiy hohish tashqi ta'sir tufayli yuz bersa, nevrotik konflikt paydo bo'ladi.

**XOTIRA** - aks ettirilgan narsa va xodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishdan iborat psixik jarayon. X. - insonning o'tmish tajribasini eslab qolish, fikriy tashkil qilish, saqlash va qayta eslashga yo'naltirilgan ko'plab psixik jarayonlari, hatti-harakatlari,

holatlaridir.

**XRONOSKOP** - (yunon. til. «xronos» - vaqt, «skopeo» - ko'raman, qarayman) - haddan tashqari qisqa vaqt oralig'ini, hatto sekundning mingdan bir bo'lagicha vaqtni o'lchaydigan elektr yoki mexanik asbob. **X.** - psixologiyada oddiy reaktsiya tezligini o'lhash uchun qo'llaniladi.

**XUKM** - tafakkur shakllaridan biri, u narsa va xodisalar o'rtasida o'zaro biron-bir bog'lanishlarning borligini tasdiqlash yoki inkor qilinishida ifodalanadi.

**XULOSA CHIQARISH** - tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo'lib, bir qancha xukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi. **X.ch.** - induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

**HAYOTIY MA'NOLAR** - bu inson uchun uning borliq bilan befarq bo'limgan shunday aloqalari majmuasiki, ularda insonning uni o'rabi olgan voqelikdan ob'ektiv bog'liqligi sifatida ham, uning ehtiyojlari va intilishlari ko'rinishida ham o'z aksini topadi. Biz kundalik hayotimiz davomida hattoki, ko'p hollarda o'zimizning turmush psixologi ekanligimizni ham unutgan holda ulardan juda ko'p foydalanamiz. Bu o'rinda «turush» so'zidan tashqari «kundalik psixologiya» yoki «odatiy psixologiya» deyish ham mumkin. Turush (odatiy) psixologiyasi kundalik ong tarkibiga kiradi.

**HARAKAT** - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan faoliyat jarayonini kichik qismi. Ongli faoliyat komponentlari va motivlaridan biri. Harakatning nerv-fiziologik asosi bosh miya yarim sharlar qobig'ida hosil bo'ladigan 1-chi va 2-chi signal tizimlaridagi muvaqqat bog'lanishlaridir.

**HATTI-HARAKAT** - insonning axloqiy o'z-o'zini ko'rsatish momenti bo'lib, bunda u boshqa kishiga nisbatan munosabati, o'z-o'ziga, guruh yoki jamiyatga, umuman tabiatga nisbatan shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. Hatti-harakat faoliyat yoki faoliyatsizlik; so'zlarda bildirilgan pozitsiya; imo-ishora ko'rinishida, qarash, nutq ohangi, matnning ma'nosi shaklidagi biron narsaga nisbatan munosabatda jismoniy to'siqlarni engib o'tish va haqiqatni izlash tomon yo'naltirilgan harakatda kabilarda ifodalanadi. Hatti-harakat - ijtimoiy hulq-atvorning asosiy birligidir, uning hamisha guvohlari bo'ladi: o'zining ijtimoiy ifodasini topmagan ichki echimi hali hatti-harakat bo'la olmaydi. Shuning uchun hatti-harakat orqaga qaytmas xarakterga ega, uni «qayta o'ynab» bo'lmaydi - aynan shu erdan sodir etilgan hatti-harakat uchun shaxsiy javobgarlik vujudga keladi. Hatti-harakatda inson shaxs

sifatidagina namoyon bo'lib qolmasdan, balki ushbu sifatda shakllanadi ham.

**HAYAJONLANISH** - psixik hodisalarning alohida toifasi bo'lib, sub'ekt tomonidan bu hodisalar, predmetlar va vaziyatlar insonning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun bevosita qiziqqon kechinmalari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

**HID BILISH SEZGISI** - sezgi turi, hidlarni aks ettirish jarayoni. Uning analizatori burun to'siqining shilliq pardasida joylashgan va uning markazi bosh miya po'stloq qismidadir.

**HISSIYOT** - odamning yuksak extiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatlarining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo'lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon.

**HIS-TUYG'U** - insonning nisbatan barqarorligi, umumiyligi, uning shaxs sifatidagi taraqqiyoti davomida shakllangan ehtiyojlari va (xususan) qadriyatlariga mosligi bilan farq qiladigan yuksak o'zaro madaniy bog'langan hissiyotlaridir.

**CHELPANOV GEORGIY NIKOLAEVICH** - (1862-1936 yy.) Rus fiziologi va psixolog G.N.Chelpanov 1862 y. Ekaterinoslavsk guberniyasiga qarashli Mariupol shahrida to'g'ilgan. Moskva universiteti qoshida, Rossiyada birinchi bo'lib, eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi (1912). Psixologiya fanini ommalashtirgan va psixologiya bo'yicha qator darsliklarga mualliflik qilgan. O'z ishlarida umumiy psixologiya har qanday falsafadan ozod bo'lishi kerak, deb uqtirgan («Miya va ruh», 1900). U fazo va vaqt ni idrok qilish masalasi bilan jiddiy shug'ullangan. Shu bilan birga eksperimental psixologiya taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. 1915 y. «Eksperimental psixologiyaga kirish» asarini yozgan. Ko'plab ilmiy ishlarini psixofizik parallelizm kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda olib borgan.

**SHAKLLANTIRUVCHI TAJRIBA** - psixologiya metodlarini biri. Bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

**SHARTLI REFLEKS** - (lot. til. «reflexus» - aks etish) - reflektor nazariyasining asosiy tushunchasi, shartli qo'zg'ovchilarga javob berishdan iborat refleks.

**SHARTSIZ REFLEKS** - (lot. til. «reflexus» - aks etish) - psixikaning I.M.Sechenov va I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan reflektor nazariyasining asosiy tushunchasi. Har qanday ta'siriga instinkтив javob berishdan iborat

tug'ma refleks.

**SHAXS** - muayyan jamiyatda yashovchi, faoliyatning biror bir turi bilan shug'ullanadigan ongli individ. **Sh.** - ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ulanuvchi betakror odam. **Sh.** - inson faolligiga xos psixik boshqaruvchilarning maxsus insoniy tizimi, psixikadagi shunday barqaror funktsional tizimki, uning yordamida inson o'zi istiqomat qiladigan muhitda tashabbuskor, maqsad sari intiluvchan bo'libgina qolmasdan, balki yaxshilashga ham qodir bo'ladi. Inson shaxs sifatidagi fazilatlarni egallaganligining asosiy belgisi uning turli hatti-harakatlarni sodir qila olish qobiliyati, ya'ni bir-birini inkor etuvchi imkoniyatlarni tanlash, o'z hayoti hamda o'zgalar hayoti bilan ham bog'liq bo'lgan ko'plab muhim momentlarni sarhisob qila olishi, o'z hatti-harakatlari uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga ola bilishi kabilardir.

**SHAXSIY ALOQALAR** - bu muayyan vaqt ichida ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasida qaror topadigan barqaror munosabatlardir. Dastlab o'zaro aloqadorlik ko'rinishida paydo bo'lib, keyin tez takrorlanishi tufayli u barqaror munosabatlarga aylanadi. Munosabatlarga misol: dushmanlik, musobaqa, muhabbat, do'stlik, ishbilarmonlik munosabatlari. «Jabrdiyda-agressor», «xotinboz - farqiga etadigan xonim», «injiq boshliq - sustkash ijrochi» va boshqa shunga o'hhash qaror topgan munosabatlar ishtirokchilar ularni o'zgartirgunga qadar noaniq muddat davomida mavjud bo'lib turadi.

**SHAXSIY ALOQADORLIK** - bu bog'liqlikning dinamik jihatni bo'lib, hamkorlar o'rtasidagi maqsadga erishishda qo'llaniladigan vositalarni kelishi, ulardan har birining qo'llaydigan strategiyasini koordinatsiya qilishni ta'minlaydi. Aloqadorlik bog'liqliknini ishtirokchilar manfaatiga moslashtirishning tez moslashuvchan mexanizmidan iborat. U kelishuv o'zaro hamkorlik yoki kurashga, har bir tomonning o'z maqsadiga erishishi uchun undashi, muammo va vazifalarni o'zicha tasavvur qilishi, ularni hal qilishning o'z usul va vositalaridan iborat bo'lishi mumkin.

**SHAXSIY KONTAKT** - o'zaro hamkorlarni yagona ijtimoiy butunlikka (2 - 3 yoki ko'proq kishilardan iborat) birlashuv darajasini anglatuvchi shaxsiy munosabat tavsifidir.

**SHAXSIY MUNOSABAT** - bu hamkorlikdagi faoliyatning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladigan va o'zaro aloqadorlikdagi strategiyalar kelishuvini kontaktlar o'rnatilishi va rivojlantirilishining murakkab va serqirra jarayoni, ular o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishi va saqlab turilishidir. Kontakt,

o'zaro aloqadorlik, munosabatlar, kommunikatsiya va idrok shaxsiy munosabatning komponentlari hisoblanadi.

**SHAXS ERKINLIGI** - insonlarning o'z xayoti va faoliyatini amalgaloshirish, ozod shaxs sifatida mehnat qilish, bilim olish, o'zi istagan kasb, hunarli, diniy e'tiqod va boshqalar ixtiyoriy tanlash.

**SHIZOFRENIYA** - (yunon. til. «shizo» - bo'lmoq, maydalamoq, «fren» - aql). **Sh.** - aql, hissiyot va irodaning pasayishidan iborat, aniq sabablari hali aniqlanmagan psixik kasallik.

**SHOK** - (ingl. til. «shok» - zarba) - qattiq ruhiy yoki jismoniy ta'sirlardan zarba olish natijasida organizmnning og'ir lat eyishi, shikastlanishi. **Sh.** - holatida qon aylanishi, nafas olish, moda almashinuvi buziladi, ba'zan ongi tormozlanadi, hushsizlanadi va h.

**EBBINGAUZ GERMAN** - (1850-1909 yy.). Nemis psixolog, eksperimental psixologiya asoschilaridan biri. G.Ebbingauz 1850 y. Germaniyada tug'ilgan. Fexnerning psixofizik tajribalari bilan qiziqqan, natijada sonli va eksperimental tekshirishlarni faqat sezgi kabi psixik jarayonlarni emas balki, diqqatni o'rganishda ham qo'llashni amalda tatbiq qilgan. Bu tajribalar uchun boshlang'ich material qilib mazmunsiz bo'g'inlar - hech qanday o'zaro mazmun assotsiatsiyasi bo'lмаган turli nutq elementlarining birikmalari olingan. 2300-ta mazmunsiz bo'g'indan iborat ro'yxat tuzib G.Ebbingauz o'zi ularni yodlagan va unutgan, shu yo'l bilan xotiraning xususiyatlari va qonuniyatlarini belgilovchi metodlarni ishlab chiqqan. Esdan chiqarish chizig'ini tuzgan, bunda material bevosita yod olishdan keyingi davrda ko'proq foiz esdan chiqishini ko'rsatgan. Bu chiziq keyinchalik malaka hosil qilish, muammoni echish bo'yicha ham chiziqlar tuzishga namuna bo'lib xizmat qilgan. Xotira bo'yicha eksperimental ishlari «Xotira haqida» asarida yoritilgan (1885). G.Ebbingauz, shuningdek, eksperimental psixologiya bo'yicha, shu jumladan, ko'rish idrokining o'ziga xosligiga oid ilmiy ishlar olib borgan.

**EGIZAKLAR METODI** - bir xil irsiyat, egizak bolalarni qiyoslab tadqiq qilish usuli. Bu metodni F.Galton taklif qilgan.

**EGOIZM** - (lot. til. «ego» - men) - xudbinlik, o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat, guruh manfaatlaridan yuqori qo'yishga kuchli intilishda ifodalananadigan salbiy xarakter xislati.

**EGOTSENTRIZM** - («Men» markaz ma'nosida) - egoizm va individualizmning eng tuban turi. E. - o'z shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini

qondirishga kuchli hirs qo'yib jamiyat manfaatlarini hatto mensinmaslikdan iborat juda past xarakter xislati.

**EYDETIZM** - (yunon. til. «eydos» - obraz) - avval idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlarini ongda aniq, to'liq va yorqin holda uzoq vaqt saqlab qola olish qobiliyatida ifodalaydigan ruhiy hodisa; idrok obrazlaridan deyarli farq qilmaydigan tasavvur sifati.

**EYFORIYA** - depressiyaga qarama-qarshi vaqtinchalik beg'amlik, biroz ko'tarinki kayfiyat.

**EKSPERIMENT (tajriba)** - (lot. til. «experimentum» - namuna, tajriba) - psixologiyaning asosiy metodlarini biri, o'zgaruvchan mustaqil psixik holatlarning boshqa nomustaqlil holatlariga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlarga tayanadi.

**EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYa** - psixologiyaning psixik hodisalar va jarayonlarni eksperimental o'rghanishga asoslangan maxsus sohasi.

**EKSTRAVERSIYA** - (lot. til. «extra» - xaddan tashqari, «versio» - o'zgarish) - shaxsning tevarak-atrofdagi odamlarga, tashqi xodisalarga yo'naliqidir. Ekstraversiya qiziqishlarning kishidan tashqaridagi narsa va xodisalarga ko'chishi demakdir.

**EKSTREMAL** - (lot. til. «extremus» - so'nggi, keskin) - oxirgi, o'ziga xos, ilojisi bo'lмаган holat.

**EKSTERIORIZATSIYA** - (lot. til. «exterior» - tashqiga aylanish) - ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyatga, jonli mushoxadaga aylanishi.

**EKSTERORETSEPTIV SEZGILAR** - tashqi olamdagи narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi sezgilar. *Masalan, ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilishdan iborat tashqi sezgilar.*

**EMOTSIYA** - (lot. til. «emovere» — uyg'otish, to'lqinlantirish, hayratga, hayajonga solish) - odam va hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zgoluvchilar ta'siriga javob reaksiyasi. E. - tevarak-atrofdagi voqealar bilan bog'liq bo'lган qisqa muddatli holat.

**EMPATIYA** - (yunon. til. «empatia» - birgalikda dardlashmoq) - boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyatini.

**EMPIRIZM** - tajribani, hissiy idrokni bilishning birdan-bir vositasi deb hisoblab, mantiqiy tahlil va nazariy umumlashtirishlarning ahamiyatini kamsituvchi falsafiy ta'limot.

**EMPIRIK METOD** - (yunon. til. «empiria» - tajriba, «metodos»-

tadqiqot) - tekshiriluvchi haqidagi ma'lumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

**EMPIRIK PSIXOLOGIYA** - mavhum, ratsional psixologiyaga qarama-qarshi bo'lgan, tajribaga asoslangan psixologiya. E.p. ga ko'ra, psixologiyaning predmeti ong hodisasadidir, psixologiyaning metodi esa - o'zini-o'zi kuzatishdir. E.p. ko'ra ong hodisalarini eksperimental ravishda o'rGANISH mumkin emas. E. p. - ong hodisalarini faqat assotsiatsiyalarning, eng oddiy elementlarning qo'shilishidan iboratdir deb hisoblaydi. E. p. barcha psixologiya qonunlarini assotsiatsiya qonunlariga tenglashtirib qo'yadi, binobarin, uningcha, barcha psixik hodisalar passiv, mexanik xarakterga ega bo'lib qoladi.

**EPILEPSIYA** - (yunon. til. «epilsia» - hujum qilaman) - davriy ravishda takrorlanadigan tutqanoqlanib hushsizlanish yoki qisqa muddatli psixik buzilish; ongning qorong'ilanishi bilan sifatlanadigan nerv-psixik kasallik.

**EPIFENOMENALIZM** - (yunon. til. «epi» - yonida, «faynomen» - hodisa) - psixika odam hayoti va faoliyatida hech qanday rol o'ynamasdan «yo'lovchining ko'lankasi kabi» faqat moddiy jarayonlar (miyaning fiziologik jarayonlari)ga jo'r bo'ladi deb hisoblovchi ta'limot. E. - termini XVII asrda ingлиз faylasufi T.Gobbs tomonidan ishlatilgan.

**ERGOGRAF** - (yunon. til. «ergon» - ish, «grafo» - yozaman). E. - muskul (mushak) lar ish qobiliyatini va charchash dinamikasini grafik usulda ifodalashda qo'llaniladigan va o'rGANISH uchun maxsus asbob.

**ERGONOMIKA** - (yunon. til. «ergos» - ish, «nomos» - qonun) - injenerlik psixologiyasining bir sohasi.

**ERUDITSIYA** - (lot. til. «eruditio» - o'qimishlilik, bilish) - barcha ijobjiy aql sifatlariga ega bo'lish, o'qimishlilik; fanning biror sohasini chuqur bilishlik.

**ESTEZIOMETR** - (yunon. til. «aystriz» - sezgi, «metreo» - o'lchayman) - teri sezgirligini o'lchaydigan asbob.

**ETIKA** - (lot. til. «etika»- urf-odat, xarakter) - ahloq haqidagi falsafiy ta'limot.

**ETNOGENEZ** - (yunon. til. «etnos» - xalq, «genезис» - kelib chiqish). E. - turli xalqlarning kelib chiqishi.

**ETNOPSIXOLOGIYA** - (yunon. til. «etnos» - xalq) - biror millatni milliy xususiyatlarini o'rGANUVCHI psixologiya sohasi.

**EFFERENT NERV** - (lot. til. «efferrens» - olib chiquvchi, «neyron» -

asab) - nerv impulslarini markaziy nerv tizimidan ish bajaruvchi a'zolarga o'tkazuvchi nerv.

**EHTIYOJ** - odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog'liq zaruriyatning ichki holati.

**EHTIYOJLAR** – inson yoki hayvonning normal yashashi uchun zarur bo'lgan etishmovchilikni aks ettiruvchi psixik yoki fiziologik keskinlik holatidir. Ehtiyojlar holat sifatida sub'ektning hayotiy faolligining shu ma'noda manbai hisoblanadiki, yuz bergen keskinlikni yo'qotishga qaartilgan sezilarli ta'sir kuchiga ega.

**EHTIROS** - muayyan faoliyat turiga kuchli intilish bilan bog'liq davomli va barqaror emotsiyal xolat.

**E'TIQOD** - maslakni amalga oshirish, shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilishi, xatti-harakati. E. – shaxning shunday ongli yo'nalishiki, unga o'y-qarashlari, printsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashiga imkon beradi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'ladi: Vatanga, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go'zallika va shunga o'xhash.

**YUNG KARL GUSTAV** - (1875-1961 yy.). Shveytsariya psixologi va psixiatri. 1906-1913 yy. Z.Freyd bilan ishlagan, keyinchalik klassik psixoanalizdan uzoqlashgan va shaxsiy analitik psixologiyasini yaratgan. Assotsiativ tajriba metodlaridan birini ishlab chiqqan, «kompleks» tushunchasini kiritgan. Ko'p yillik klinik tekshirishlar natijasida «Odam ruhiyatida faqat individual emas, balki jamoaviy beixtiyoriylik ham katta rol o'ynaydi, jamoaviy beixtiyoriylik mazmunini ajdoddlardan qolgan arxetipler belgilaydi», degan xulosaga keladi. 2-ta belgi asosidagi xarakter tipologiyasini yaratdi: maqsad yo'nalishi va hukmron funktsiya (tafakkur, his-tuyg'u, sezgi, oldindan bilish).

**Tuzuvchi: A.N.Urumbaeva** – NDPI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

## **«PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI»**

### **fani bo'yicha asosiy tushuncha va terminlarning**

**izohli lug'ati**

*Bosh muharrir:* **K.M. Koshanov**  
*Texnik muharrir:* **X.Shamuratova**  
*Korrektor:* **Z.Baltabaeva**  
*Operator:* **N.Nisanbaev**

**Ajiniyoz nomidagi NDPI Tahriryat – nashr bo'limi**

**Ajiniyoz nomidagi NDPI bosmaxonasida chop etilgan. 2019 yil.  
Buyirtma №0068. Adadi 100 dona. Formati 60x84. Hajmi 4,0 b.t.  
230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, Reestr №11-3084**